ISSN: 2181-3035
15.06.2022
№ 5



TALQIN VA TADQIQOTLAR

respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Texnika fanlari
Iqtisod fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Psixologiya fanlari
San'at va madaniyat fanlari
Jismoniy tarbiya va sport

talqin@bk.ru
+99891-152-93-14
www.talqinva tadqiqotlar.uz

@TALQINVATADQIQOTLAR

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

5-son 2-qism
15.06.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich
O'z FA Sharqshunoslik instituti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Bazarov Odiljon
Filologiya fanlari doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo'jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li
O'z FA Tarix instituti
Tojiyeva Gulnora Akramxonovna
Xalq ta'limi a'lochisi
Abdullayeva Maftunaxon Umidjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Akbarov Qobuljon Yakubovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi
G'ofurovTo'lqinjon Zafarjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti, matematika fani o'qituvchisi
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA TARAFLAR O‘RTASIDA KELISHUV BITIMINING AHAMIYATI Soliev Azizbek Sodirjon o'g'li	6
2.	OBYEKTLARNING SINFLARGA TEGISHLILIK FUNKSIYASI QIYMATLARI BO‘YICHA BERILGANLARDAN YASHIRINGAN QONUNIYATNI IZLASH Ahmedov J.B.	10
3.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PERIMETR TUSHUNCHASINI O‘RGATISHDAGI IZCHILLIK Norkulova Dilorom Oybekovna	13
4.	АСОССИЗ ҲИСОБЛАНГАН КРЕДИТ ҚАРЗДОРЛИК СУДДА ФУҚАРОНИНГ ФОЙДАСИГА ҲАЛ ЭТИЛДИ Мавсума Йўлдошева	16
5.	BLENDING AS A TYPE OF WORD-FORMATION IN MODERN ENGLISH Qoraqo‘ziyeva Diyora	19
6.	IMPORTANCE OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN INCREASING LEARNERS‘ MOTIVATION Kodirova Mokhira Bakhodirjon kizi	22
7.	SHEKSPIRNING "HAMLET"ASARI HAQIDA Dilnozaxon Murotova Otabek qizi	26
8.	XALQ MUSIQA IJODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MUSIQA SAN’ATI FIDOYILARINING FAOLIYATI XUSUSIDA Rajabov To‘xtasin Ibodovich, Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li	28
9.	IQTISODIY VA SIYOSIY QARAMLIKDAN – TARAQQIYOTGACHA ! O‘ZBEKISTON, KECHGA, BUGUN VA ERTAGA Rahmonov Alisher Ulug‘bek o‘g‘li	33
10.	TASHQI MUHIT OMILLARINING IPAK QURTIGA TA’SIRI VA PILLA O‘RASH AGROREXNIKASI Rustamova Lobarxon Qahramon qizi	36
11.	ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI Turaxonova Muqaddas Xudoyberdiyevna	42
12.	RASMIY USLUBNING USLUBLAR ICHIDAGI O‘RNI Toshlonova Sitoraxon Inomjon qizi	45
13.	ANALYSIS OF DEFINITIONS OF LITOTES SUGGESTED BY SCHOLAR Tulanova Ominabonu Ğulomjon qizi, Egamnazarova Durdona Shuhratillaevna	50
14.	“TURKISTON LEGIONI” TO‘G‘RISIDA XORIJIY MANBALAR Zohidjon Xoldorov	54
15.	TURKISTON MUXTORIYATINING O‘RGANILISH TARIXI Azimova Yulduz Djura qizi	57
16.	NATURAL SONNI ABSOLYUT BO‘LAKLASHDAGI BUTUN YECHIMLARI SONI Tursunov Bekzod Burxon o‘g‘li, Komilov Boburmirzo Otabek o‘g‘li Zuxirdinov Najmiddin Nasoxxidin o‘g‘li	61
17.	UCHINCHI SINF ONA TILI KURSIDA OT SO‘Z TURKUMINING O‘RGATILISHIDAGI IZCHILLIK Norkulova Dilorom Oybekovna	65
18.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRSH - YANGI O‘ZBEKISTON TIMSOLIDA Yo‘ldasheva Mushtariy	68
19.	KISHISHILARARO MUNOSABATLARNI ANGLATUVCHI URDUCHA VA O‘ZBEKCHA MUSHTARAK MAQOLLAR Yusupova Mohira	72
20.	ТРЕБОВАНИЯ К ГРУНТУ ДЛЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ДОРОГ Зафаров Олмос Зафарович, Ирискулова Камола Нормат кизи	78
21.	ПАСТ НАВ ПАХТАЛАРНИ ТОЗАЛАШНИНГ САМАРАЛИ ЕЧИМЛАРИ ТАҲЛИЛИ Б.Н.Қўзиев, Ҳ.Ғ.Турдиниёзова	83

22.	РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОВСКОЙ И ИНТЕЛЕКТУАЛЬНОЙ ПОЭЗИИ XX ВЕКА Бозорова Нигора Хакимовна, Муртазоева Нилуфар	89
23.	РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ПОЛУЧЕНИЯ ВОЛЬФРАМОВОГО ПРОДУКТА ИЗ ЛЕЖАЛЫХ ХВОСТОВ ИНГИЧКИНСКОЙ ФАБРИКИ И КЕКА НПО АО «АГМК» Муталова Мархамат Акрамовна, Махмудова Гулшода Хайитбоев Музаффар, Маннобова Озода	94
24.	DIDAKTIK O‘YINLAR TURLARI VA MAQSADLARI Mirzaulukova Muyassar Ubaydullayevna	101
25.	УСМОН АЗИМ ИЖОДИДА АЛЛОҲГА МУРОЖААТЛАР Қурбонова Мафтуна	104
26.	НАЗВАНИЕ ГОЛОВНЫХ УБОРОВ ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ Булекбаева Екатерина Александровна	107
27.	СЕЛ ТОШҚИНЛАРИНИ КУЗАТИЛИШ ҲАВФИНИ ПРОГНОЗЛАШДА ТАБИИЙ– ИҚЛИМИЙ ОМИЛЛАРНИНГ БАҲЛОЛАШ Туляганов А.Х. Махкамов Б.Р	111
28.	СРЕДСТВА СРОЧНОГО ВОССТАНОВЛЕНИЯ ПРЫЖКОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ Асанова Динара	120
29.	ДАВОЛАШДА ИШЛАТИЛАДИГАН АМПИЦИЛЛИН АНТИБИОТИКЛАРИНИ НОЖЎЯ ТАЪСИРИ С.Х. Михманова	125
30.	АНЕМИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ САБАБЛАРИ С.Х. Михманова	128
31.	“ОИЛА” ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МАДАНИЯТИДА АКС ЭТИШИ Усманова Гулбахор Ураимжоновна, Г.М. Хошимов	131
32.	ОСОБЕННОСТИ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА ЭПОХИ ПЕРЕСТРОЙКИ Халимова Нафосат Давронбек кизи	139
33.	XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATIGA TA’SIRI Rustamov Xayotbek	146
34.	РОТАЦИОННОЕ РЕЗАНИЕ – ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ МАШИНОСТРОЕНИЯ Мардонов Бахтиёр Тешаевич, Каримов Аваз Фарход ўғли	149
35.	TURIZM FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA ICHKI MEXANIZMNING AHAMIYATI Rustamov Xayotbek	158
36.	XITOY XALQ RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI Rustamov Xayotbek	160
37.	XALQARO AHAMIYATGA EGA AVTOMOBIL YO‘LLARIDAN TARQALAYOTGAN TRASNPORT SHOVQINIDAN MUHOFAZA QILUVCHI CHORA-TADBIRLAR MAJMUASI VA HIMOYA EKRANLARNING LOYIHAVIY YECHIMLARI Kimsanboyev Odiljon Akbarjon o‘g‘li, Salimova B.D.	163
38.	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Рахмонов Санъат Бахтиёрович	180
39.	DIGITAL ECONOMY: THE ATTRACTIVENESS OF FOREIGN INVESTMENT AND MODERN OPPORTUNITIES FOR DEVELOPMENT IN THE COUNTRY Berdiqulova Sevinch Tohir qizi	185
40.	O‘ZBEK BOLALAR MUSIQA FOLKLORI Masharipov Umrbek Baxtiyorovich	190

MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA TARAFLAR O‘RTASIDA KELISHUV BITIMINING AHAMIYATI

Soliev Azizbek Sodirjon o'g'li
Namangan viloyati Yuridik texnikumi 204-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270310

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida sudlarining vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan Ma’muriy sudlarni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining qabul qilinishi, Ma’muriy sudlarning takomillashib borishining huquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sud vakolatlari, taraflar, ma’muriy sudlar, kodeks, strategiya, ma’muriy yustisiya.

Annotation: This article deals with the establishment of Administrative Courts by reviewing the powers of the courts on the basis of the Action Strategy for the Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, the Codex of Administrative Procedure of the Republic of Uzbekistan opinion on measures to ensure the effective protection of the rights of the parties in administrative proceedings.

Keywords: jurisdiction, parties, conciliation agreements, strategy.

Аннотация: В данной статье речь идет о создании административных судов путем пересмотра полномочий судов на основе принятия Стратегии развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, Административно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, правовая основа для совершенствования административных судов.

Ключевые слова: подсудность, стороны, административные суды, кодекс, стратегия, административная юстиция.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining ahamiyati katta bo‘lib, fuqarolik, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va xo‘jalik sudlarining vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan Ma’muriy sudlarni tashkil etish nazarda tutildi. Ma’muriy sudlarning tashkil etilishi 2018 yil 8 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy tartib taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni va 2018 yil 25 yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi bilan mustahkamlab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida» hamda 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60 sonli Farmoni bilan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Ushbu Farmon bilan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida, Ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo‘llash sohasini kengaytirishga alohida ahamiyat berildi. 2022 yil 29 yanvar kungi «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-107 sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur normativ hujjatlarning barchasi Ma’muriy sud ishlarini yuritishda taraflarning huquqlarini samarali himoya etilishini ta’minlashga, aholini sudlarga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. *Qarorga ko‘ra davlat organlari tomonidan sud qarorlarining ijro etilishi ustidan nazoratning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish hamda ma’muriy sud ishlarida taraflarga kelishuv bitimini tuzish huquqini ham berish ko‘zda tutildi.*

Bugungi kunda taraflar o‘rtasida kelishuv bitimlarining tuzilishi qay darajada ahamiyatli?

Kelishuv bitimi -taraflarning o‘zaro kelishishiga asoslangan va nizoni hal qilish yuzasidan yozma kelishuv hisoblanib, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida va sud hujjatini ijro etish jarayonida tuzilishi mumkin. Qonunchilikka ko‘ra, taraflar o‘rtasida tuzilgan kelishuv, sudda ko‘rib chiqilib, tasdiqlanib, nizo yuzasidan yuritilgan ish yurituvdan tugatiladi.

Bugungi kunda kelishuv bitimlarini tuzish Fuqarolik prosessual kodeksi hamda Iqtisodiy protsessual kodekslarining tegishli moddalarida nazarda tutilgan. Mazkur kodeksda Iqtisodiy sud ishini yuritishda taraflar sud muhokamasi davomida kelishuv bitimi tuzish istagini bildirsalar, sud taraflarga ushbu sud majlisida kelishuv bitimi tuzishni taklif etishi yoki taraflar kelishuv bitimi shartlarini ishlab chiqishlari uchun ularga imkoniyat bergan holda, ishni ko‘rishni boshqa muddatga qoldirishga haqli bo‘ladilar. Fuqarolik sudi ishini yuritishda esa taraflarni yarashtirish sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkinligini inobatga olingan, sud’ya ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida taraflarga kelishuv bitimini tuzish orqali nizoni o‘zaro to‘liq yoki qisman hal etishlari mumkinligi va kelishuv bitimi tuzish afzalliklari va oqibatlarini tushuntirishi nazarda tutilgan. Ma’muriy sudlarda ish yuritishning qonuniy asosi bo‘lgan MSIYUtKning 140 moddasida sud’yaning ishni sud muhokamasiga tayorlash bo‘yicha harakatlari belgilangan:

1) ishda ishtirok etish uchun boshqa javobgarni yoki uchinchi shaxsni jalb etish masalasini ko‘rib chiqish;

2) manfaatdor shaxslarni ishni yuritish to‘g‘risida xabardor qilish;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishga bo‘lgan huquqlari haqida xabardor qilish;

4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni amalga oshirishni, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etishni taklif etish;

5) guvohlarni chaqirtirish;

6) ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish;

7) taraflarga zarur dalillarni olishga ko‘maklashish, taraflarning iltimosnomasi bo‘yicha ularni talab qilib olish;

8) taraflarning iltimosnomasi bo‘yicha dastlabki himoya choralarini ko‘rish va dalillarni ta’minlash to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

9) boshqa shaxslarning ishga kirishishi, ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish yoki arz qilingan talablarini alohida ish yuritishga ajratish, sayyor sud majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqishi belgilangan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud’yaning ishni muhokamaga tayorlash bosqichida taraflarni yarashtirish choralarini ko‘rish va kelishuv bitimini taraflarda o‘rtasida tuzish afzalliklari haqida tushuntirishlar berishi nazarda tutilgan. Biroq MSIYutK da bunday tartibdagi ya’ni Ma’muriy sud ishlarini yuritishda kelishuv bitimlarini tuzish haqidagi norma kiritilmagan va sud’yaning ishni sud muhokamasiga tayorlash bo‘yicha harakatlariga kiritilmagan. Aynan 2022 yil 29 yanvardagi «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-107-sonli Qarorida taraflarga, qonun hujjatlarida belgilangan hollarda, ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo‘yicha kelishuv bitimini tuzish ko‘zda tutilgan. O‘ylaymizki, Ma’muriy sud ishlarini yuritishda kelishuv bitimlarini tuzish huquqini taraflarga berish, sud’yaning ishni sud muhokamasiga tayorlash bo‘yicha harakatlari doirasiga kiritish mazkur sohadagi ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni yechim topishiga, taraflarning huquq va erkinliklarini o‘z vaqtida tiklanishiga xizmat qiladi. Bunday holatlar, albatta Ma’muriy odil sudlovning chinakam huquqiy institut sifatida faoliyat yuritishiga, fuqarolar va mansabdor shaxslarning mazkur sudga ishonchi ortishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy tartib taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 2018 yil 25 yanvar.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni.

5. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.

6.«Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-107 sonli Qarori. 2022 yil 29 yanvar.

OBYEKTLARNING SINFLARGA TEGISHLILIK FUNKSIYASI QIYMATLARI BO‘YICHA BERILGANLARDAN YASHIRINGAN QONUNIYATNI IZLASH

Ahmedov J.B.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar» fakulteti
2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270470

Annotasiya: Ushbu tezisda turli xil ob'ektlarining sinflarga tegishlilik funksiyasi kiymatlari buyicha berilganlardan yashiringan konuniyatni izlash algoritmlarini yaratish va tadbik kilish usullarni bayon kilingan. Yaratilishi kuzda tutilgan usul va algoritmlarni tadbik kilish yuiori darajali dasturlash tillarida amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Obyektlarning sinflarga tegishlilik funksiyasi, intervallar, turg‘unlik.

Yashiringan qonuniyatni izlash uchun obyektlar ketma-ketligini intervallarga bo‘lib, so‘ngra birinchi qadamda shu intervallardagi chastotalar farqini toppish kerak bo‘ladi. $\frac{d_i(u,v)}{|K_i|}, i=1,2, u \le v$ formula $[u,v]$ intervallardagi $i-$ sinfga tegishli obyektlar sonining umumiy $i-$ sinfga tegishli obyektlar soniga nisbati ya’ni shu intervaldagi $i-$ sinfga tegishli obyektlar chastotasi $\left|\frac{d_1^i(u,v)}{|K_1|}-\frac{d_2^i(u,v)}{|K_2|}\right| \to \max.$ orqali esa chastotalar farqining maksimal ya’ni eng katta qiymatga erishgan intervalini toppish orqali eng yaxshi ajralgan intevallar to‘plamini topib olamiz.

Endi ma’lum intervallardagi sinflarning tegishlilik funksiyasi qiymatlarini hisoblash uchun birinchi sinfga tegishli chastotalar farqini $\eta_{1i}=\frac{d_1^i(u,v)}{|K_1|}$ va ikkinchi sinfga tegishli chastotalar farqini $\eta_{2i}=\frac{d_2^i(u,v)}{|K_2|}$ bilan belgilab olamiz.

$$f_1(i)=\frac{\eta_{1i}}{\eta_{1i}+\eta_{2i}}. \qquad (1)$$

(1) formula $i-$ intervalga tegishli 1 – sinfga tegishli obyektlar hissasini ko‘rsatuvchi tegishlilik funksiyasidir.

$$G = \frac{1}{m}\sum_{\{[r_u, r_v]^T\}} \begin{cases} f_t(i)(v-u+1), & f_t(i) > 0.5, \\ (1-f_t(i))(v-u+1), & f_t(i) < 0.5, \end{cases} \quad (2)$$

(2) formula orqali esa shu alomatning turg‘unligini toppish mumkin. Turg‘unligi eng yuqori bo‘lgan alomat eng yaxshi intervallarga ajralgan alomat hisoblanadi.

Obyektlarning sinflarga tegishlilik funksiyasi qiymatlari bo‘yicha berilganlardan yashiringan qonuniyatni izlash tizmini yaratish. Bunda bizga tasvirni segmentlash ma’lumotlarini predmet soha sifatida qabul qildik.

Ma’lumotlar to‘plamining tavsifi: Tasvirni segmentlash ma’lumotlari Namunalar 7 ta tashqi tasvirlar bazasidan tasodifiy tarzda olingan. Tasvirlar har bir piksel uchun tasnif yaratish uchun segmentlarga bo‘lingan. Obyektlar soni - 2310, alomatlar soni - 19 ta

Sinflar:

1. g‘isht yuza
2. osmon
3. barglar
4. sement
5. oyna
6. yo‘lak
7. o‘t

Bu yerda 7 ta sinfni ajratish uchun juda katta kombinatsiya (2310 * 2309 * 2308 * 2307 * 2306 * 2305 * 2304) bo‘lib ketadi shuning uchun bitta sinf va boshqalar deb qarash ishimizni osonlashtiradi. Shuning uchun:

Sinflar:

1. g‘isht yuza
2. va boshqalar

1 – jadval.

№	Alomat nomi	Turg‘unligi
1	region-centroid-col	0.65602
2	region-centroid-row	0.7335
3	region-pixel-count	0.73354
4	short-line-density-5	0.69935
5	short-line-density-2	0.70807
6	vedge-mean	0.59216
7	vegde-sd	0.60731
8	hedge-mean	0.58497
9	hedge-sd	0.57718
10	intensity-mean	0.8054

11	rawred-mean	0.7975
12	rawblue-mean	0.79242
13	rawgreen-mean	0.84419
14	exred-mean	0.89554
15	exblue-mean	0.7481
16	exgreen-mean	0.73409
17	value-mean	0.79266
18	saturatoin-mean	0.90378
19	hue-mean	0.98291

Bundan tashqari har bir alomatni tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, birinchi alomat “region-centroid-col” bo‘yicha turg‘unlik (4) ifoda orqali hisoblanganda jadvalda ko‘rinib turganidek 0.65602 qiymatga erishamiz lekin oldimizga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga mos kelmaydi. Shunday ekan, bizga berilgan barcha boshqa alomatlardan foydalangan holda (4) ifodaning o‘rniga qo‘ygan holda barcha alomatlar orasidan eng katta turg‘unlik qiymatini izlaymiz, jadvaldagi natijalarga ko’ra eng katta turg‘unlik qiymatiga erishadigan alomat “|hue-mean” alomati hisoblanadi uning turg‘unlik qiymati esa o‘z navbatida 0.98291 ga teng.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.А.Игнатьев, Р.Н.Усманов, Ш.Ф. Мадрахимов. Берилганларнинг Интеллектуал Таҳлили. Ўқув қўлланма. 2018 й, 23–29.б

2. Игнатьев Н.А., Мадрахимов Ш.Ф. Устойчивост и обобщённые оценки классифицированных объектов в разнотипном признаковом пространстве Вычисл. Технологии 2011.Т.16, №2. С. 70-77.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PERIMETR TUSHUNCHASINI O‘RGATISHDAGI IZCHILLIK

Norkulova Dilorom Oybekovna
BuxDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270518

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda perimetr tushunchasini o‘rgatishdagi izchillik haqida so‘z yuritildi. Buning uchun boshlang‘ich sinf darsliklari asos qilib olindi.

Kalit so‘zlar: perimetr, ko‘pburchak, siniq chiziq, nuqta, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida boshqa tushunchalar qatorida perimetr tushunchasi ham o‘rgatiladi. Bu tushunchalar bilan tanishtirrish o‘quvchilarga nazariy va amaliy jihatdan zarur hisoblanadi. Fan sohasidagi biror masala yoxud misolni hisoblashda perimetr mavzusiga oid tushunchaning qo‘llanishi perimetr tushunchasining nazariy ahamiyatini asoslasa, perimetrtushunchasini kundalik-hayotga tatbiq etish esa bu tushunchalarning amaliy ahamiyatini asoslab beradi.

Perimetr tushunchasi boshlang‘ich sinflarda quyidagi izchillikda o‘rgatiladi:

a) tayyorgarlik bosqichi. Perimetr tushunchasini kiritish, mazmunini asoslash;

b) to‘g‘ri to‘rtburchak perimetri, kvadrat perimetri bilan tanishtirish;

c) turli ko‘pburchaklar uchun perimetr tushunchasini umumlashtirish;

d) perimetrni o‘lchash, hisoblashga doir amaliy ishlar

Birinchi bosqich tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, bu bosqichda o‘quvchilarga perimetr tushunchasining mazmuni ochib beriladi. Perimetr so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, atrofni o‘lchayman degan ma‘noni anglatadi. Anglatayotgan ma‘nosidan anglashilganidek, perimetr tevarak-atrof, predmetlarni umumiy uzunligini topishga xizmat qiladi. Perimetr tushunchasi bilan tanishtirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash.
2. Kesma uzunligini chizg‘ich yordamida o‘lchash.
3. Ikkita turli uzunlikdagi kesmani chizish va ularni taqqoslash
4. Chizg‘ich yordamida nuqtalarni ketma-ket birlashtirish
5. Berilgan o‘lchovlarga ko‘ra kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchaklar chizish
6. Shakllar tomonlarining uzunliklarini chizg‘ich yordamida o‘lchash
7. Kesma uzunligini o‘lchash va taqqoslash
8. Kesmalarni qo‘shish va ayirishga oid topshiriqlar bajarish
9. Siniq chiziq uzunligini hisoblash.

10. “Ko‘pburchak perimetri” tushunchasi bilan tanishtirish

Tayyorgarlik bosqichi so‘nggiga kelib o‘quvchilar sodda geometrik figuralar (nuqta, kesma, to‘g‘ri chiziq, siniq chiziq, ko‘pburchak) kabilarni tanish va katakli daftarda tasvirlash, kesma uzunligi, siniq chiziq uzunligini o‘lchay olish, berilgan uzunlikdagi kesmani yasash, uchburchak, to‘rtburchak perimetrini hisoblash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Ikkinchi bosqichda kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetrlarini topish o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Bu bosqichni o‘quvchiga perimetrni amaliy jihatdan o‘lchab ko‘rsatish bilan boshlash yaxshi samara beradi. Buning uchun o‘qituvchi istalgan ko‘pburchakni olib, sim yoki lenta yordamida ko‘pburchak yon tomonlari shaklini hosil qiladi. Yon tomonlar uzunligini to‘liq aks ettirgach, ko‘pburchak olinib sim yoki lenta yoyib uzun holatga keltirilib o‘lchanadi. Olingan natija ko‘pburchak perimetri ekanligi o‘quvchilarga aytib o‘tiladi.


To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama qarshi tomonlari tengligidan perimetri a+b+a+b=ko‘rinishdagi ifodaga teng bo‘ladi. Soddalashtirish natijasida quyidagi formula hosil bo‘ladi:

b

a  2b=2(a+b)

Kvadratda ham formula mavjud bo‘lib, bu formula kvadrat tomonlarining tengligidan yuzaga kelishi o‘quvchilarga tushuntirib o‘tiladi:

a

a  +a=4a

Uchinchi bosqichda barcha ko‘pburchaklar uchun perimetrni topish formulasi umumlashtirib xulosalab o‘tiladi.

To‘rtinchi bosqichda perimetrni topishga oid misol va masalalar yechiladi.

Berilgan ko‘pburchak perimetrini hisoblash, rasmda tasvirlangan shaklning tomonlaridan foydalangan holda perimetrini hisoblash, o‘zaro teng perimertli ko‘pburchaklarni topish va ko‘pburchak perimetrlarini taqqoslash shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bu kabi tushunchalarni o‘rgatish ularning fikrlash doirasi va tafakkurining kengayishiga olib keladi va o‘z

navbatida o‘quvchilarni tejamkorlikka o‘rgatishda ham yordam beradi. O‘rganilgan bu bilimlar kun kelib ularga qaysidir tomondan asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Saidova G.E., Yusufzoda Sh.Y., Yarashov M.J.,,Matematika o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar” Buxoro,,,Durdona” nashriyoti -2021

2.O‘rinboyeva L.,Jumayev M., Ro‘ziqulova N., Raxmonov U. 1-sinf uchun darslik – Toshkent,2021

3.O‘rinboyeva L.,Jumayev M., Ro‘ziqulova N., Raxmonov U. 2-sinf uchun darslik – Toshkent,2021

4.Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q.,Ruzikulova N. 3-sinf uchun darslik.T:”Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati,2019

5..Bikbayeva N.U. 4-sinf uchun darslik.T:”O‘qituvchi” nashriyoti-matbaa uyi,2020

6.Jumayev M.E.,,Matematika oqitish metodikasi” (KHK uchun) Toshkent. Ilm Ziyo 2011 yil.

7.Jumayev M. E.,,Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. (KHK uchun) Toshkent. Ilm Ziyo 2009 yil.

8.Jumayev E.E.,,Boshlangich matematika nazariyasi va metodikasi”. (KHK uchun) Toshkent. Turon-iqbol, 2011 yil.

АСОССИЗ ҲИСОБЛАНГАН КРЕДИТ ҚАРЗДОРЛИК СУДДА ФУҚАРОНИНГ ФОЙДАСИГА ҲАЛ ЭТИЛДИ

Мавсума Йўлдошева
Хоразм вилоят судининг судьяси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270546

Аннотация: Ушбу мақолада судлар томонидан ҳуқуқни қўллаш амалиёти, фақат процессуал ҳужжатлар эмас, балки, давлат томонидан қабул қилинадиган ва барча учун умуммажбурий характерга эга норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ўзаро нисбати ва судлар томонидан қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида қисқача баёни келтирилган.

Калит сўзлар: судлар, кредит, кафиллик, шартнома, апелляция шикояти, коронавирус пандемияси, суднинг қарори.

Фуқаролик ишлари бўйича судларининг вазифаларидан бири фуқароларнинг шахсий, сиёсий ва ижтимоий ҳуқуқларини, эркинликларини ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдан иборатдир. Бу жамиятда қонунийликни ва ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлашга, демократияни, ижтимоий адолатни, фуқаролар ўртасида тинчлик ва тотувликни таъминлашга кўмаклашиш, фуқароларда қонунга ва судга нисбатан ҳурмат муносабатини шакллантиришда муҳим ўрин тутади.

Фуқаролик ишлари бўйича судлар томонидан фуқаролар билан банклар ўртасидаги низоларни кўриб чиқилишида аксарият ҳолларда фуқароларнинг ҳуқуқлари тикланаётганлигини таъкидлашимиз жоиздир.

Бунга АТИБ “Ипотекабанк” Хоразм вилоят филиали билан жавобгар Абдуллаева Шоҳиста ўртасида келиб чиққан низонинг судда қонуний якун топганини мисол қилишимиз мумкин.

Ҳозирги даврда судларда кредит низоларига оид ишлар сонининг кўпайиб бораётганлиги долзарб масала эканлигини эътироф этган ҳолда, ушбу низолар банклар, фуқаролар ва тадбиркорлар ўртасидаги оддий тушунмовчилик ёки келишмовчилик эмаслиги яққол намоён бўлмоқда.

Ушбу соҳадаги низоларни кўришда судьядан банк ва кредит соҳасига тегишли кўплаб қонунлар ҳамда меъёрий ҳужжатлар мажмуасини билимдони бўлишни, тарафларнинг ҳуқуқ ва бурчларини чуқур ўрганишни, иш ҳужжатларини, айниқса тарафлар ўртасида тузилган шартномаларни, тўловга оид ҳужжатларни таққослаш, солиштириш йўли билан текширишни талаб қилади.

Даъвогар Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси Хоразм вилоят худудий бошқармаси АТИБ “Ипотекабанк” Хоразм вилоят филиали манфаатида судга даъво ариза билан мурожаат қилиб, ушбу банк фойдасига жавобгар Ш.Абдуллаевадан асосий кредит қарзи учун 14.732.614 сўмни, ҳисобланган фоизи учун 892.504 сўмни, пеня учун 235.396 сўмни, жами 15.860.514 сўмни, шунингдек даъво аризани судга топширилишида почта харажати учун тўланган 17.150 сўмни ундиришни сўраган.

Судининг 2021 йил 5 июлдаги ҳал қилув қарори билан даъвогарнинг даъвоси тўлиқ қаноатлантирилган.

Ушбу суд қароридан норози бўлиб, жавобгар Ш.Абдуллаева апелляция шикояти билан вилоят судига мурожаат қилган.

Суд муҳокамасида аниқланишича, АТИБ “Ипотекабанк” Хоразм вилоят филиали томонидан кредит шартномасига асосан жавобгар Ш.Абдуллаевага 60 ой муддатга 16 фоиз устама тўлаш шарти билан маиший техника сотиб олиш учун 20. 000. 000 сўм миқдорида кредит ажратилган.

Кредит таъминоти сифатида ушбу банк билан жавобгарлар Ш.Абдуллаева ва О.Абдуллаевлар ўртасида тузилган кафиллик шартномаси тақдим қилинган.

Жавобгар кредит тўловларини ўз вақтида тўламасдан шартнома шартларини бузиб келаётганлигини асос қилиб даъвогар кредит ва унга ҳисобланган фоизларни муддатидан олдин ундириш ҳақида судга мурожаат қилган.

Бироқ, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5978-сонли қарорининг 11-бандида тижорат банклари томонидан молиявий қийинчиликларга дуч келган юридик ва жисмоний шахслар, якка тартибдаги тадбиркорларнинг кредитлари бўйича тўловларга 2020 йил 1 октябрга қадар кечиктириш тақдим этиш; амалга киритилган карантин режими фаолиятига салбий таъсир кўрсатган қарздорларнинг муддати ўтиб кетган кредитларига гаров таъминоти бўйича жарима санкциялари ва ундирув чоралари қўлламаслик белгиланган.

Шундай бўлсада, жавобгар Ш.Абдуллаева 2020 йил 1 апрелдан 1 октябрга қадар жами қарийб 8.000.000 сўм кредит тўловларни амалга оширган, бундан ташқари у судга даъво ариза берилгунга қадар кредит тўловларини тўлаб келган бўлиб, бу эса шу даврда тўланиши лозим бўлган кредит тўловларидан ортиқча тўловларни ташкил этади.

Бундан кўринадики, даъвогар тараф судга ушбу даъво ариза билан мурожаат қилган вақтда жавобгар Ш.Абдуллаеванинг кредитдан муддати ўтган қарзи мавжуд бўлмаган.

Банк томонидан жавобгар Ш.Абдуллаеванинг ортиқча тўлаган кредит тўлови унинг тўлов графиги бўйича кейинги ойлардаги қарзини қоплаш учун йўналтирилмаган.

Аксинча, банк томонидан жавобгар Ш.Абдуллаевани тўлов жадвалига кўра, у 2020 йилнинг март, май, сентябрь, ноябрь ойлари учун кредит тўловлари графикдан кам тўлаганлиги, 2020 йил июль ва декабрь ойлари учун кредит тўлови тўламаганлиги, 2021 йил январда тўлов графикдан кам тўлаганлиги ҳамда жавобгар 2021 йил март, апрель ва май ойлари учун кредит тўловларини тўламаганлигини асос қилиб, бу ҳақда судга тегишли маълумотнома тақдим қилинган.

Бироқ, биринчи инстанция суди иш учун аҳамиятли бўлган ҳолатларни тўлиқ ўрганмасдан, даъвогарнинг даъво талабини қаноатлантириш ҳақида барвақт ва нотўғри хулосага келган.

Шу сабабли судлов ҳайъати биринчи инстанция судининг ҳал қилув қарорини бекор қилиш, апелляция шикоятини қаноатлантириш, даъвогарнинг даъво талабларини асоссиз деб топиб, рад қилиш ҳақида янги ҳал қилув қарори қабул қилишни лозим топди.

Судда фуқаронинг мулкий ҳуқуқи ишончли ҳимоя қилинди, бу Ўзбекистонда фуқароларнинг ҳуқуқлари устуворлиги тамойилига қатъий риоя қилинишидан далолатдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси.-Тошкент: 1996

2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси.-Тошкент:

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5978-сонли қарори.

BLENDING AS A TYPE OF WORD-FORMATION IN MODERN ENGLISH

Qoraqo'ziyeva Diyora
Student of Pedagogical Institute of
Andizhan State University, Uzbekistan
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270558

Abstract: The focus of this article is a morphological process in English that is commonly referred to as (lexical) blending. The aim of this work is to identify new blends that have entered the English language. The descriptive approach, used in this article, is based on the division of the new blends and their structures in English.

Key words: Word Formation Processes, New Blends, Blending Structures, Overlapping, Clipping.

Blending is a frequent and productive word-formation process that can be defined as follows: blend- ing involves the coinage of a new lexeme by fusing parts of at least two other source words of which either one is shortened in the fusion and/or where there is some form of phonemic or graphemic overlap of the source words; some typical and well-known examples are given in (1).

(1) a. br(eakfast) $_x$ (l)unch → brunch
b. mot(or) $_x$ (hot)el → motel

Blending has mainly been investigated in terms of the following questions:

1. How can blending be distinguished from other word-formation processes?
2. How can different kinds of blends be distinguished from one another?
3. Why do blends have the structure they have? Put differently, why are blends created the way they are?

Twasbrillig and the slithytoves
Did grye and gimble in the wabe
All mimsy were the borogoves,
And the momerathsoutgrabe.

When Alice asked Humpty Dumpty to explain the poem "Jabberwocky" to her, part of his explanation ran as follows:

"Well, <slithy> means lithe and slimmy. <Lithe> is the same as active. You see it is like a portmanteau – there are two meanings packed up into one word.Well then, <mimsy> is flimsy and miserable". [1]

[1]Lewis Caroll, Alice`s advantures in Wonderland, 1865

A portmanteau is a word formed by blending elements from two or more distinct words to create one word with a new, combined meaning. This very process gave rise to its more familiar name – **a blend.**

The clearest examples of blends, however, are like the ones that Humpty Dumpty mentions, where the etymological root of the word is only clear when specifically explained.

Brillig→ bright, brilliant

Gimble→ gambol, tumble, amble

Blending can be considered... as the method of merging (connecting) parts of words into one new word as when «sm+oke» and «fog» derived from «smog».

Thus, "blending is compounding by means of curtailed (shortened) words. However, the clusters «sm» and «og» were morphemes only for the individual speaker who blended them while in terms of the linguistic system as recognized by the community, there are not signs at all. Blending, therefore, has no grammatical, but a stylistic status. The result of blending is... an unanalysable, simple word, not a motivated syntagma"[2].

Different Types Of Blends. There are many types of blends, based on how they are formed. Algeo, a linguist, proposed dividing blends into three groups:

A. Phonemic Overlap: a syllable or part of a syllable is shared between two words.

B. Clipping: the shortening of two words and then compounding them. In other words, clippings are reductions of longer forms, usually removing the end of the word, sometimes the beginning, or both beginning and ending together.

C. Phonemic Overlap And Clipping: shortening of two words to a shared syllable and then compounding. For all three types of blending, the majority of items combine their components sequentially: a segment of the first word is followed by a segment of the second word, with possible overlapping between the two segments.

Classification of blends

- **Modified blends**

Modified blends are blends in which "the first element modifies the second element". They are transformable into a phrase with the first element serving as a modifier.

Breath +analyzer = breathalyzer

Motor + hotel = motel

Motor + camp = mocamp

- **Meaningful blends**

[2]Hans Marchand, The categories and types of present day English word formation, 1960

Meaningful blends “share properties of the referents of both elements”. They are transformable into a phrase consisiting of the respective non-clipped stems combined by the conjunction “and”.

Boat + hotel = boatel

Breakfast + lunch = brunch

Modulator + demodulator = modem

Blends are coined not infrequently in scientific and technical language as a means of naming new things, as trade names in advertisements. Since blends break the rules of morphology they result in original combinations which catch quickly. Most of the blends have a colloquial flavour.

Exploring this area of new words can be a useful way of equipping students to deal, not only with the way English evolves and the new words they are likely to encounter but can also help them to understand the way the words they already know have evolved and developed. An understanding of this area can be a key skill in helping them to become more independent in their language learning and develop a greater enjoyment and engagement with the language.

References:

1. Carroll, Lewis (1996) Alice's Adventures in Wonder land and Through the Looking-Glass. Oxford: Oxford University Press, p. 102
2. Hans Marchand, The categories and types of present day English word formation, 1960
3. http://www.allbest.ru/
4. http://www.googlebooks.com/
5. O.Muminov, Lexicology of the English language, Tashkent, 2006
6. NaghmehMirzai, New blends in English language, 2014, Tafresh university
7. Stephan, Th. Gries, Shouldn`t it be breakfunch? A quantitative analysis of blend structure in English, 2004

IMPORTANCE OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN INCREASING LEARNERS‘ MOTIVATION

Kodirova Mokhira Bakhodirjon kizi
Andizhan State University
1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270598

Annatatsiya: Maskur maqolada autentik materillarni ingliz tilini o‘rganishdagi jarayonida qollashning samarali usullari haqida fikr olib borilgan. Shuningdek, mazkur masala bo‘yicha misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sinfxondagi tadqiqot, ma’no, tushuncha, haqiqiy materiallar.

Annotation: This article provides authentic materials and their importance in increasing learners ‘motivation. The article also gives example on this topic.

Keywords: classroom investigation, context, concept, real materials.

Аннотация: в этой статье представлены аутентичные материалы и их важность в повышении мотивации учащихся. в этой статье также приведены примеры по этой теме

Ключевые слова: расследование в классе,концепция, контекс, реалные материалы.

There is a now special concern in language teaching that the use of authentic materials is crucial to develop of learning processes. English language teaching needs a meaningful context. It means that student should get “beyond” the language. This idea suggests that should only know language but also do how to use in the real life situation. So, insufficiently using amount of authentic materials is the best way to increase students ‘motivation in the learning context. Authentic materials are defined as any spoken and written materials which are not for pedagogical purposes. Graves contents that although teachers do not deserve right to choose the core materials, they have to enlarge their creativity how to make such materials more interesting. One of the attempt is creating their own additional materials. Moreover, task –based language teaching is now widely used in the towns in which focus of English learning process is the communicative language tasks that students need to perform. Consequently, authentic materials play a key in promoting task- based language learning since they connect the language used in the classroom with natural use of language outside of the classroom. (Nunan, 1991, cited in Oura, 2001)

Due to the technological innovations, the twenty-first century has witnessed vast changes in all steps of life. The new technology supported the current educational system and it gifted the present time educational system with a newfangled content.

As a result, there have been several creations in the system of education and English has no exception. The concept of teaching English has dramatically changed and the present generation of teachers as well as the learners depend more on the latest technology that gets a greater change in teaching and learning process. In the modern world, the teachers of English have been using a variety of teaching materials in order to satisfy the needs and interests of the learners. In this process, they also go for the authentic materials in addition to the prescribed textbooks with an aim to improve the standards of the learners and to develop their learners' language skills tremendously in the usual English learning process. According to Peacock (1997), there are some advantage of authentic Authentic materials are more motivating for students, even lower level students,than artifcial materials". Furthermore, Briton states, "Authentic materials relate more closely to learners' need, for they build a connection between the languageclassroom and the outside world. The teachers have to use all the available authentic materials such as newspapers, magazines, story books, movies, radio, TV ads, songs, label products, bus or train timetables, realia like phones and dolls so that the learners show more interest towards their leaning. As authentic materials play a vital role in promoting the learners' learning and creates interests among learners to learn the English language in a natural way with proper motivation, the teachers of English should use theseauthentic materials in their day-to-day teaching profession. The present paper brings to light to the effective use of authentic materials by the teachers in the English language classrooms. For this purpose, this paper initially discusses the advantages of authentic materials in the education. Then this paper brings out the importance of the authentic materials that are used in the English language classrooms. Later, this paper emphasizes primarily on the effective use of the authentic materials and how they assist the teachers in their teaching and also how they help the learners to learn English in a better and easier way. Finally, this paper gives some expedient hints both to the teachers and the learners of English to how improve their teaching and learning skills colossally using the authentic materials in the learning context. In contemporary digital period, technology arrangeded a new dimension in almost all the fields and the field of education has highly benefitted in bringing tremendous changes in teaching and learning processes. With the introduction of the internet and computers in education, the teaching and learning has become easy an accessible for all the teachers and learners of English. The teachers have been using the internet to download materials, update their knowledge, get immediate solutions for their doubts and queries, show the required pictures, videos and audios to the learners, give Power Point presentations, record the learning process of the students and so on. After the introduction of the mobile phones or smart phones, there is a tremendous change in the learning style of the learners. The learners are able to learn the language both in

and outside the classrooms. As the present generation of learners gets the opportunity of using numerous sources to learn any subject, the use of authentic materials seems tobe a great help for them to improve their learning skills. The teachers can use the authentic material as additional material to develop the overall skills of the learners' learning. With the help of the authentic material, the teachers can reinforce the

learning items and can give additional tasks to the learners. Furthermore, these authentic materials create interest among the learners since the teachers select them with proper care by taking the needs and interests of the learners. As a result, the learners can participate with more enthusiasm in the given tasks and try to perform the tasks with utmost care and concentration. Authentic materials are abundantly used in the teaching of English by the teachers to attain better results while teaching the learners in the English language classrooms.

The teaching is concept which is a subject commonly depends on the analysis of the nature of the certain subject, its teaching and learning system in research and the theories related to philosophy and psychology of education. Teaching learning materials continually handle methods, approaches materials, syllabus and evaluation. Language teachers use two types of materials, i.e., the materials that are exclusively get ready for teaching a language, for example textbooks and authentic materials such as newspapers, brochures, pamphlets, etc. that are used for the purposes other than teaching but are often used in the language classrooms while they teach a language. The materials used in the classroom are precisely prepared by the subject experts of the English language to meet the needs and requirements of the learners. Even though these materials provide standard information, they are monotonous. In motivating the learners, the materials adapted by the subject experts and they fail to present the realworld or situational language and it leads to teachers'burnout. Therefore, it is more essential for the language teachers to prepare their own materials for their teaching according to the needs and interests of the learners and also according to the demands of the prevailing society. As the normal and prescribed materials do not satisfy the needs and interests of the students, the teachers of English have to prepare some supplementary materials on their own. In this meaning, authentic materials are so useful for them to use in their classrooms. The teachers of English can adopt materials on the needs of the learners so that the learners can work on the given materials with a lot of interest and more enthusiasm. Indeed, authentic materials provide very good resources for teachers and they give the learners an chance to expose to the real-life and out-of-classroom contexts. The main focus of the authentic materials in the learning context is to convey the meaning of the message and to communicate the message according to the context. When authentic materials are provided for the students, no hesitation, they will surely use English in real-life situations. Moreover, the learners develop their language skills huge and

communicate not only with their peers in the classrooms but also with friends, family members and other people outside the classrooms.

Reference:

1.Cornish, S. (2014), Video in the TESOL Classroom, in Erica Garvey's reading text for language teaching methodologies, NCELTR, Macquarie University, Sydney- Australia, p: 25

2.Crawford, J. (2015), the Role of Materials in the Language Classroom: Finding the balance, in the Erica Garvey's reading text for Language Teaching Methodologies, NCELTR, p: 28-31

3.Garvey, E. (2007), Lecture 3: Materials and Resources, Language Teaching Methodologies, NCELTR, Macquarie University-Sydney, Australia, p: 2

4.Guariento, W. and Morley, J. (2001), Text and Text Authenticity in the EFL classroom, ELT Journal; Oxford University Press in association with the British Council, volume 55/4, p: 347, 348, 349 and 351

5.Hanson-Smith, E. (2001), Computer Assisted Language Learning in the text of: The Cambridge Guide to Teaching English to Speakers of Other Languages, by Carter, Rand Nunan D, p: 109, 110

6. Larimer, R. E. and Schleicher, L. (2000), New Ways in Using Authentic Materials in the Classroom, TESOL Inc., p: introduction section, 21, 52, 102, 148, 158, 166

7. Linder, D. (December 1999/January2000), Authentic Texts in ESL/EFL, TESOL Matters, 9:6, p: 17, from the website: read write act.org /files /2013/ 02/ authentic_texts_in_esl_efl.pdf accessed on 04.04.2013

SHEKSPIRNING "HAMLET"ASARI HAQIDA

Dilnozaxon Murotova Otabek qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270624

Anotatsiya: Ushbu maqolada Shekspirning “Hamlet” tragediyasi misolida tragediya janrining xarakterli,badiiy xususiyatlari muhokama qilinadi.
Kalit so‘zlar: dramaturgiya**,** tragediya, tasvir, holat, konflik, Shekspir, Hamlet.

Barchaga ma’lumki, tragediya so‘zi yunoncha tragoidia so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “echki qo‘shig‘I” degan ma’noni bildiradi.Chunki qadimgi Yunonistonda teatr ijrochilari echki terisidan tikilgan liboslar kiyishgan. Bugun teatr va adabiyotda tragediya adabiyot janrlaridan biri sifatida namayon bo‘ladi. Tragediya zamonaviy dramaning baxtsizlikka olib keladigan,markaziy muammolar xuddi qadimgi drama kabi qayg‘uli yakun topib,asar qahramonining fojeasi millat tanazulli bilan tugaydigan asarlarga nisbatan ishlatilinadi. Bunga esa, odatda, axloqiy zaiflik,psixologik moslashuv,ijtimoiy bosim o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Shekspir tragediyasi o‘ziga xosligi bilan boshqa fojeali asarlardan ajralib turadi. Shekspir tragediyalarida asarga xos barcha unsurlar ishtirok etadi. Fojeaga sababchi bo‘luvchi qahramon tragediyaning eng muhim elementlardan biridir. Yozuvchining asarlarida fojeali qahramon,asosan, bir kishidan iborat bo‘lib qahramon erkak yoki ayol bo‘lishi mumkin. Fojeali qahramon muqarrar qismatdan aziyat chekkan eng eng qayg‘uli odam bo‘lishi shart.

Mashhur olim Endryu Sesil Bredlining aytishicha,”Shekspir tragediyasi bu aslida hikoyadir. Shunday hikoyaki, azob –uqubat va ofat bilan yakun topadi” Shekspir fojeali qahramonining muhim tomoni shundaki,u oddiy inson emas.U mamlakat shohi yoki mamlakatning obro‘li, zodagon fuqarolaridan yoki taniqli shaxs. Misol uchun Hamlet – Daniya shahzodasi. U aqlli,ochiqko‘ngil, kelishgan hamda mulohazali.Qahramon shunchalik muhim shaxski,uning o‘limi butun boshli g‘alayon va tartibsizliklarni keltirib chiqaradi.Hamlet otasining o‘limi uchun amakisidan qasos olganida u,nafaqat,amakisiga,balki,o‘ziga ham o‘limni ravo ko‘radi.

Shekspir tragediyalarida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash tasvirlangan.Uning aksariyatida yovuzlik timsollari yovuzlikning hukmronligi va yaxshilikni bostirish bilan shug‘ullanadi. XIX asrning taniqli shoir va adabiyotshunosi Edvard Doudenning so‘zlariga ko‘ra Shekspir tomonidan o‘ylab topilgan fojea inson hayotini va ruhini tiklashga qaratilgan fojeadir.Boshqacha

aytganda, uning mavzusi dunyodagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashdir. Shekspir asarlarida hech qachon yaxshilik yovuzlik ustidan g‘alaba qilmaydi. Shekspir tragediyalarining bosh qahramonlari halol va yaxshi insonlar. Asar qahramoninig qiyinchiliklari,ko‘rgan azoblari bizni unga hamdard bo‘lishga chaqiradi. Yovuz odamlarning harakati bizni unga nisbatan g‘azabimizni uyg‘otadi.

Shekspir asarlari oradan qancha yil o‘tsa-da,hech qachon kitobxonlar qo‘lidan va qalbidan tushmay keladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shekspir."Romeo va Julyetta"-Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashiryoti, 2001.

2.B.Jalilov.O‘zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari,1984.

3.Hotamov N,Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati,1983]

4.Anikst A.A. Gamlet. Shekspir to'plami / Ed. Aniksta A.A va Shtayn A. M.: Nauka, 1961 yil.

5.Belinskiy V.G. To'liq to'plam Sochi, II jild, M.: Fanlar akademiyasining nashriyoti, SSSR, 1953 yil

6. XVII asr chet el adabiyoti tarixi / Ed. Z.I. Plavskin. – M., 1987 yil.

7. V. Shekspir. Gamlet, Daniya shahzodasi. Ingliz tilidan tarjima. M. Lozinskiy. M.: Nashriyotchi: AST Astrel, 2011 yil.

8.. Shvedov Yu.Uilyam Shekspir. Tadqiqot. M., 1975 yil.

XALQ MUSIQA IJODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MUSIQA SAN'ATI FIDOYILARINING FAOLIYATI XUSUSIDA

Rajabov To'xtasin Ibodovich
Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li
Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270656

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq musiqa ijodiyotining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida yoritilgan. Xalq og'zaki ijodining musiqa san'atida ahamiyati, folklorshunoslikning rivojlanish davri, respublikamiz musiqa hayotida musiqiy bilimlarni to'plash va musiqa ijodkorligi, ya'ni bastakorlikning ilk bosqichlari, maqom ijrochiligi an'analari, ilk musiqa bilim dargohlariga asos solinishi, musiqashunoslik fanlarining tadbiq etilishi, ilk musiqiy nashrlar hamda bugungi kundagi musiqa madaniyatida o'tgan davrdagi xalq musiqa ijodiyotining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Hodi Zarif, Matyusuf Xarratov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, To'xtasin Jalilov, Shorahim Shoumarov, Abdurauf Fitrat, Yunus Rajabiy va boshqa musiqa san'ati fidoyilarining faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik, musiqa madaniyati, qo'shiq, bastakor, sozanda, ijrochi, maqom yo'llari, "Sharq musiqa maktabi", konservatoriya, zamonaviy musiqa.

Xalq musiqa ijodiyoti – musiqa san'atining eng qadimgi ildizlaridan bo'lib, har bir xalqning o'tmishidan darak beruvchi, tarixi, madaniyati va an'analarini o'zida ifoda etuvchi bebaho xazinadir. O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq og'zaki ijodi, xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keladi. Musiqa boshqa san'at turlariga nisbatan o'zgacha ta'sir kuchiga ega. U insonning axloqiga, hissiyotiga, tuyg'ulariga qaratilgan bo'lib, shular orqali uning ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishida zamin bo'lib xizmat qilgan. Bu san'at o'zining xalqchilligi, g'oyaviyligi va qiziqarli ekanligi bilan bir qatorda xalqning matonati, yengilmas irodasi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, shodiyona, adolat, tinchlik haqidagi tasavvurlarni yorqin namoyon eta oladi.

Xalq ogʻzaki ijodi - xalq tomonidan yaratilib, ogʻizdan-ogʻizga, avloddan-avlodga oʻtib kelgan boʻlib, bugungi kungacha oʻz oʻrniga ega. Xalq musiqasi, folklorni toʻplash, kengroq oʻrganish, targʻib etish masalalarini oʻtgan asrning 30-50-yillaridan koʻrib chiqadigan boʻlsak, bu davrda ilk oʻzbek folklorshunoslari tomonidan Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, Muhammadqul Jomurod oʻgʻli, Poʻlkan singari shoirlardan xalq ogʻzaki ijodi namunalarini yozib olish, toʻplash ishlari olib borilgan. Shu oʻrinda oʻzbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarif oʻzbek xalq baxshilaridan “Yusuf bilan Ahmad”, “Yodgor”, “Ravshan”, “Rustamxon” kabi mashhur dostonlarni yozib olgan, shuningdek, ertak, qoʻshiq va maqollar, dialektologiya va etnografiyaga oid materiallar, tarixga oid hujjat va yodnomalar toʻplagan. Nurmon Abduvoy oʻgʻli, Abdulla Nurali oʻgʻli, Xolyor Abdukarim oʻgʻli, Ahmad baxshi Matnazar oʻgʻli, Bola baxshi kabi xalq san’atkorlari ijodi haqida ilmiy maqolalar yozgan. Oʻzbek eposi masalalari, baxshilik san’ati, xalq shoirlarining epik repertuarining gʻoyaviybadiiy mundarijasi, oʻzbek folklorshunosligining asosiy taraqqiyot yoʻllarini tadqiq etishga alohida e’tibor bergan.

Milliy-musiqiy an’analarning tub mohiyati xususidagi fikr-mulohazalarni yanada oydinlashtirish maqsadida musiqa madaniyati tarixiga murojaat qiladigan boʻlsak, XX asrning 20-30-yillari respublikamiz musiqa hayotida bilimlarni toʻplash va shu asosda asta-sekin yuksalish davri boʻlgan deyishimiz mumkin. Bu davrda yangi qoʻshiqlar yaratilgan va hayotda tadbiq etilgan. Ularning ijodkorlari esa, xalq san’ati vakillari, ya’ni bastakorlar boʻlib, ularning toʻplagan va ijod etgan bir qator musiqa asarlari bizgacha yetib kelgan. Ma’lumki, bu davrda professional bastakorlar boʻlmagan. Xalq orasida oʻziga xos qoʻshiqlar mavjud boʻlib, ularning mualliflari noma’lum boʻlsada, aholi orasida keng ommalashgan. Misol tariqasida 20-yillarda keng tarqalgan “Fabrika” yoki “Zags” qoʻshiqlarini aytish mumkin. Ana shu qoʻshiqlarda oʻzbek xotin-qizlarining turmush tarzi, mehnati va hayoti aks ettirilgan. Eski va yangi soʻzlar bilan aytiladigan an’anaviy oʻzbek kuy-qoʻshiqlari qatorida oʻsha davr uchun yangi oʻzbekcha she’rlar ham keng tarqalishi oʻziga xos yangilik boʻlgan. Keyinchalik esa hayot, voqelik mavzusida juda koʻp qoʻshiqlar yaratib, cholgʻu kuylarini ijod qilgan bastakorlar oʻzbek qoʻshiqchiligi uslubining vujudga kelishi hamda rivojlanishida katta ahamiyatga egadirlar. Ana shunday qoʻshiqlarning biri Matyusuf Xarratov (Chokar)ning yozgan “Kolxoz marshi” qoʻshigʻidir.

Buxoro "Shashmaqomi"ni puxta bilgan oʻzbek hofiz va sozandalari koʻp yillik ijrochilik faoliyatlarida musiqa merosining an’analarini targʻib etishda faollik koʻrsatishadi. Ular qadimiy kuylarni puxta bilganliklari sababli oʻz asarlarini, jumladan, kuylar, qoʻshiqlar yaratishga erishadilar. Taniqli bastakor, sozanda va pedagog Toʻxtasin Jalilov tomonidan yaratilgan “Signal” qoʻshigʻi joʻshqin, quvnoq, mehnatkash kishilarning kayfiyatiga mos cholgʻu p’yesasi sifatida jaranglagan. Oʻzining yangi qoʻshigʻi uchun oʻziga xos milliy ijrochilik an’analaridan foydalangan.

O‘zbek qo‘shiqchilik san’atida o‘chmas iz qoldirgan hofiz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov o‘zining yorqin iste’dodi hamda beqiyos ijrochilik san’ati bilan o‘z davrida milliy musiqa an’analarini targ‘ib etgan. Shuni aytish kerakki, uning repertuari asosan keng diapazonli og‘zaki an’anaviy professonal musiqa asarlaridan iborat bo‘lib, bu san’at asarlarining shakli murakkab va ohangi takomillashgan edi. "Bayot", "CHorgoh", "Girya", "Ilg‘or", "SHaxnozi Gulyor" kabi ashulalar Mulla To‘ychi Toshmuammedov ijrosida yanada o‘zgacha qiyofa kashf etgan. Uning uzoq yillik tajribasi juda ko‘p bastakorlar, qo‘shiqchilar uchun eski va yangi ashulalarni ijro etish mahoratini o‘rganishda tuganmas xazina bo‘lib xizmat qildi.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining bilimdoni Shorahim Shoumarov esa dastlab To‘ychi hofizdan xonandalik sir-asrorlarini o‘rganib, Abdusoat Vahobovdan dutor chalishni, musiqa sirlarini, ijro mahoratini o‘rgangan. Musiqa san’ati fidoyilari aka-uka Rizqi va Yunus Rajabiylar, Imomjon Ikromov, Po‘lat Rahimov, Faxriddin Sodiqov va boshqalar milliy musiqa merosi, uning an’analarini targ‘ib etganlar. Ayniqsa, akademik Yunus Rajabiy o‘zbek musiqasida bu milliy an’analarni munosib davom ettirgan. Yunus Rajabiy tomonidan tashkil etilgan o‘n ikki kishilik milliy dasta milliy musiqamiz targ‘ibotida munosib hissa qo‘shgan.

O‘zbek musiqa madaniyatida yana bir e’tirofga loyiq hodisa 1921-yilda Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan xalq konservatoriyasi qatorida birinchi Buxoroda “Sharq musiqa maktabi” ochilishi bo‘ldi. Fitratning san’atshunoslikka oid xizmatlari ham tahsinga sazovordir. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari, sozanda va xonandalar bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etadi. Maktabda o‘zbek va tojik an’analari asosida sof milliy musiqalar o‘rganila boshlandi. 1925 yilda Buxoro xalq konservatoriyasi yopildi. “Sharq musiqa maktabi” esa oradan ikki yil o‘tgach qayta tashkil qilindi, u “Sharq musiqa texnikumi”ga aylantirildi. Fitrat shu vaqtdan boshlab „Shashmaqom“ kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qiladi. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G‘iyosdan Buxoro Shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etiladi. Fitrat “Shashmaqom“, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” maqolalari va 1927-yilda “O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi” risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslik fanini boshlab beradi.

O‘zbek musiqa madaniyati tarixida 1928-yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya instituti ochiladi. 1926 yilda Moskvada Davlat musiqa fanlari instituti tashkil etiladi. Shu institut qoshida musiqa-etnografiya kurslari faoliyat ko‘rsatadi. Unda turli respublikalardan kelgan musiqachilar jalb qilinadi. 1934-yilda Toshkentda Oliy musiqa maktabi ochiladi va oradan 2 yil o‘tgach, Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Toshkent davlat konservatoriyasida musiqa yo‘nalishida oliy ma’lumotli kadrlar ya’ni bo‘lajak kompozitorlar, musiqashunoslar, dirijyorlar, qo‘shiqchilar va ijrochilarni tayyorlashga katta e’tibor

berildi. Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqa, anʼanaviy ashulalar, yalla va laparlar, qoʻshiq merosi janrlari oʻzining xarakterli xususiyatlari bilan yangi yaratiladigan qoʻshiqlarga alohida kuchli taʼsir qiladi.

1946 yilda “Oʻzbek musiqasining rivojlanish yoʻllari” nomli kitob nashr etilib, unda taniqli rus sanʼati arboblarining oʻzbek musiqa madaniyati rivojlanishidagi ishtiroki, respublika sanʼatini oʻrganish hamda takomillashuvi atroflicha yoritiladi. Kitobda oʻzbek musiqasining oʻtmishi umumlashtiriladi, musiqa madaniyati namoyandalarining portretlari ifodalanadi, xalq ogʻzaki ijodini nazariy tadqiq qilish masalalari bayon qilinadi, hamda bastakorlar ijodi, musiqa-pedagogikasi va ijrochilik muammolari tahlil qilinadi.

Oʻzbek opera sanʼatining yaratilishi xalq milliy musiqa madaniyati rivojlanganidan dalolat beradi. Oʻzbek bastakorlarining asarlari milliy, mumtoz va zamonaviy koʻp ovozli sanʼatni oʻzida mujassamlashtirgan. Hozirgi oʻzbek musiqasi xalqning musiqiy tafakkuri uslubiga va estetik ehtiyojlariga toʻla javob beradi. Bir-birini boyitish va oʻzaro taʼsir koʻrsatish turli xalqlar madaniyatining rivojlanishidagi obyektiv tarixiy jarayondir. Oʻzbek musiqa madaniyati faqat oʻzbeklarga xos emas, balki boshqa xalqlarga ham xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda oʻzbek xalq musiqa madaniyati faqat milliy elementlargagina emas, balki umumbashariy xususiyatlarga ham ega. Musiqa tilining ohang-ritm tuzilishi, badiiy ifoda vositalari oʻziga xos boʻlib, u oʻzbek xalqining musiqiy tafakkuri xususiyatlarini hamda musiqiy-estetik mohiyatini ifodalaydi. Oʻzbek xalqining musiqa madaniyati oʻzida milliylik va zamonaviylik mazmunini uygʻunlashtirib, muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ilgari oʻzbek xalqining musiqa janri avloddan-avlodga faqat ogʻzaki ravishda oʻtib kelgan. Musiqa madaniyati asarlarini ogʻzaki oʻrganish etnografik va professional musiqani tarkibiy ravishda birlashtirgan. Xalq musiqa asarlarida oʻzbek xalqining orzu-umidlari, yuksak estetik va ahloqiy sifatlari ifodalangan. Oʻtgan davr musiqa madaniyatini chuqur oʻrganish, bugungi kundagi zamonaviy musiqa ijodiyotiga zamin hosil qiladi.

Maqomlar qadimiy, anʼanaviy xalq musiqasi zaminida vujudga kelgan va Markaziy Osiyoda rivojlanib, turkum shakliga kirgan. Hozirgi vaqtda Respublikamizda maqomning ikkita asosiy turkumi — Buxoro va Xorazm maqomlari keng tarqalgan. Xalq musiqachi-ijrochilari goʻzalligi jihatidan betakror, yorqin maqom kuylarini doimo xotiralarida avaylab saqlaganlar va avloddan-avlodga yetkazganlar. Xullas, musiqa sanʼatini qadimdan shakllangan xalq musiqasisiz tasavvur etish mushkul. Musiqa madaniyatining rivojlanishida tarixda boʻlib oʻtgan har bir hodisa muhim sanaladi. Zero, musiqa madaniyatining rivojlanishi shunday bir zanjir boʻlib, davrdan-davrga taraqqiy etib boraveradi. Musiqa madaniyatining bugungi kundagi rivojlanishi xalq ogʻzaki ijodi, xalq musiqasi bilimdonlari, maqomchilik sanʼati va ustoz-sanʼatkorlar faoliyati natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent., Fan., 1993 yil.

2. Raximov A. R. O. G. L. et al. O‘ZBEK MUSIQA FOLKLORI NAMUNALARINI TO‘PLASH VA YOZIB OLISH TARIXIDAN //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

3. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O‘zbek Xalq Musiqa Merosda O‘quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали, 1(6), 139-145.

4. Ражабов Т. И. Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.

5. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O‘zbek Xalq Musiqa Merosda O‘quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

6. Toxtasin Ibodovich Rajabov UZLUKSIZ TALIMDA FOLKLOR QO‘SHIQLARINI IJRO ETISHHIHG O‘ZIGA XOS USLUBLARI // Scientific progress. 2021. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/uzluksiz-talimda-folklor-qo-shiqlarini-ijro-etishhihg-o-ziga-xos-uslublari (дата обращения: 13.06.2022).

IQTISODIY VA SIYOSIY QARAMLIKDAN – TARAQQIYOTGACHA ! O‘ZBEKISTON, KECHGA, BUGUN VA ERTAGA

Rahmonov Alisher Ulug‘bek o‘g‘li
Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi bitiruvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270692

Ma’lumki, mamlakatimiz so‘ngi yillarda rivojlanishining murakkab va yuksak cho‘qqilariga erishmoqda. Mustaqilikka erishilganidan so‘ng olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar nafaqat O‘rta Osiyoda balki, jahon sahnasida ham mamlakatimizni dunyoga tanitmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyev prezidentligi davrida ya’ni 1991 yilda davlatimiz suverenetitetiga ega bo‘lib, mustaqillikka erishilganidan boshlab hozirgi kunga qadar barcha davlatlar tomonidan tan olindi. Tarixiy davr bilan olib qaraganda atigi 30 yil davomida O‘zbekiston rivojlanishi bo‘yicha yuksak marralarga erishmoqda. Albatta, bunda o‘zining unutilmas, beqiyos va qahramonona mehnati va faoliyati bilan yuksak yordam ko‘rsatgan Islom karimov hamda 2017 yildan hozirga qadar bu faoliyatni yuqori bosqichda davom ettirayotgan Shavkat Mirziyoyevning ham ahamiyati kattadir. Mustaqillikka erishilganidan so‘ng birinchi prezidentimiz tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar albatta xalqimizning tushiga ham kirmagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning sababi esa xalqimiz boshidan kechirgan, sobiq sovet davrida bolib o‘tgan nohaqliklar va og‘ir xayot tarzi barchaning tinkasini quritgan. I.A.Karimov tomonidan xalq va davlatimiz ravnaqi uchun amalga oshirilgan ko‘plab ishlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Sobiq ittifoq tarqalishi arafasida O`zbekiston hech qachon mustaqil bo`la olmaydi, o`zi alohida taraqqiy qila olmaydi degan fikrlar mavjud edi. Koplab gazeta va jurnallarda SSSR parchalanib ketganidan so`ng eng dahshatli voqealar O`zbekistonda yuz berishi haqida ko‘plab ta’kidlandi. Lekin bunday bo`lmadi. Mustaqillik yo`lida O`zbekiston hech qaysi davlatga o`xshamagan, o`ziga xos va o`ziga mos yo`ldan borib, o`zini o`nglab olishga erishdi. Bozor iqtisodiyotiga o`tishda O`zbekistonning o`zi tanlagan, o`ziga xos yo`li mavjudligi va bu yo`ldagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yuzasidan maqsadlar belgilandi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tishda o‘zbek modelida urf-odatlarimizni dinimizni, aholini qiynayotgan muammolarni, mamlakatimizdagi boshqa millatlarning madaniyati va an'analarini hurmat qilib, geografik-siyosiy joylashuvi,tabiiy-iqlim sharoiti, yer osti va yer usti boyliklari kabi salohiyatini yuksak darajaga olib chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga xalq, jamiyat va davlat uchun muhim bo‘lgan barcha tizimida tub burilishlar bo‘ldi, bularning barchasi xalqimiz ko‘z o‘ngida sodir bo‘ldi.

Sh.M.Mirziyoyev 2003 yilda O‘zbekiston Respublikasi bosh vazir lavozimiga saylangan va 2005,2010 va 2015-yillarda 3 marta qayta saylangan Sh.Mirziyoyev 2016 yilda O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov vafoti munosabati bilan 3 oy vaqtincha muddatga va 2016 yil 4-dekabr kungi prezident saylovida saylovchilarning 88.61 foiz ovozi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 2021 yilgi saylovlarda ham ikkinchi marta 5 yil muddatga prezident lavozimiga saylanishi prezidentimiz tomonidan qilinayotgan demokratik islohotlar va xalqning ishonchidan darak beradi. Sh.mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh rejasi sifatida 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”ni yuqorida ta’kidlangandanidek bozor iqtisodiyotiga o‘tishdagi “o‘zbek modeli” ning davomchisi sifatida e’tirof eta olamiz.

“Harakatlar strategiyasi” Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish uchun 2017 — 2021-yillarda “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da - davlat va jamiyat qurilishini, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli ruhdagi tashqi siyosat yuritish ustuvor vazifalari belgilandi va o‘ylaymizki bularning barchasiga erishilganligiga xalqimiz, jamiyatimiz guvohi boldi.

“Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” Ma’lumki, shu kunlarda Sh.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”ning 7 ta ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur strategiyada islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon qilib olindi. Prezidentimiz tomonidan so‘zlangan nutqida, ushbu strategiyada erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlash va boshqa bir qancha muhim sohalarda islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur nutqda mamlakat rahbari kelgusi besh yil uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilab berishda yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligini alohida ta’kidlab o'tdi. Ma’ruzaning e’tiborli jihatlaridan biri, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o'ringa shaxs, inson qadri yuqori o'ringa qo'yilib, “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil asosida tuzildi. Albatta, o‘tgan 5 yillardagi amalga oshirilgan ishlardan jamiyatimizdagi bir qator muammolarni ham tan olishimiz kerak. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot

strategiyasida esa anashu muammolarni yechishda ustuvor reja va vazifalar belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, keng ko'lamli islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda halqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yagona asos va mezonga aylanishiga ishonamiz…

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi haqida

2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi tog'risidagi prezident farmoni

TASHQI MUHIT OMILLARINING IPAK QURTIGA TA’SIRI VA PILLA O‘RASH AGROREXNIKASI

Rustamova Lobarxon Qahramon qizi
Namangan Davlat Universiteti Biotexnologiya fakulteti Biologiya yo‘nalishi II bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270718

Annotatsiya: Ipak qurtining keyingi oziqlanmaydigan davrlariga o'tish vaqtida tanani dushmanlardan va tashqi noqulay sharoitlardan himoya qiluvchi biologik qurilma- pilla hisoblanadi. Maqolada ipak qurtlarining pilla o'rash jarayoni bosqichlari, agrotexnikasi, pilla o'rash davridagi harorat, namlik va boshqa tashqi muhit omillarining qurtlar hayotchangligiga kòrsatgan ta'siri, pilla terish va navlarga ajratish borasida fikr-mulohaza yuritamiz.

Kalit so'zlar: Pilla, dasta, pilla qobig'i, dinamik ekvator, ipak tolasi, g'ovak parda, po'st tashlash, aeratsiya, nuqsonli pillalar.

Abstract: During the transition to the next non-feeding periods of the silkworm, the cocoon is a biological device that protects the body from enemies and external adverse conditions. In the article we discuss the stages of the silkworm cocoon process, agrotechnics, the impact of temperature, humidity and other environmental factors on the cocoon during the cocoon period, cocoon picking and sorting.

Keywords: Cocoon, stalk, cocoon shell, dynamic equator, silk fiber, porous curtain, peeling, aeration, defective cocoons.

Аннотация: При переходе к очередным непищевым периодам тутового шелкопряда кокон является биологическим приспособлением, защищающим организм от врагов и внешних неблагоприятных условий. В статье обсуждаются этапы коконного процесса тутового шелкопряда, агротехника, влияние температуры, влажности и других факторов внешней среды на кокон в период коконного периода, сбор и сортировка кокона.

Ключевые слова: Кокон, стебель, оболочка кокона, динамический экватор, шелковое волокно, пористая завеса, шелушение, аэрация, дефектные коконы.

Kirish: 2017-yil 24-martda «Respublika ipakchilik tarmog'i korxonalarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi chiqdi. Bu farmoyishda Respublikada pillachilikni yanada rivojlantirish choralari aniq ko‘rsatib berilgan bo‘lib, respublikada pilla va ipak tayyorlash yagona «O‘zbekyengilsanoat» uyushmasiga birlashtirilib, uning raisi

O‘zbekiston Respublikasi vaziriga, uning birinchi o‘rinbosari vazirning birinchi o‘rinbosariga, rais o‘rinbosarlari vazir o‘rinbosarlariga tenglashtirildi.

Pilla hosilining sifati va xomashyosining talab darajasida tayyorlanishida qurt boqish agrotexnikasi va tashqi sharoit omillarining ta'siri bilan bir qatorda dasta tayyorlash, pilla o'rash va uni o'z vaqtida terib topshirish hamda pillaxonada saqlash muddatlari muhim ahamiyatga ega. Ba'zi hollarda, bu jarayonga pilla yetishtiruvchi zveno va pillalarga dastlabki ishlov beruvchi korxona xodimlari e'tibor bermaydi. Shuning uchun respublika bo'yicha yetishtirilayotgan pillaning 28-30 foizini navsiz pillalar tashkil etadi. Vaholanki, pillachiligi rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 3-5 foizga tengdir. Ko'p zvenolar pilla o'rashning 4-5-kunidan pillalarni terib qanor va qoplarda, havo o'tkazmaydigan qutilar va boshqa idishlarga solib topshiradilar. Bu esa yetishtirilgan pillalarni pachoq bo'lishi va sifatsiz pillaga aylanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, pillaxonalarda qabul qilingan pillalar qalin qilib to'kilib, g'umbagi o'ldirilmasdan bir пecha kunlab saqlab turiladi, oqibatda pillaning navdorlik xususiyatlari pasayishiga olib keladi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni ijobiy hal qilish uchun, ipak qurtlarining pilla o'rashi uchun dasta tayyorlash, pilla o'rash, pillalarni terish va topshirish jarayonlarining pilla sifati va texnologik ko'rsatkichlariga ta'sirini ilmiy va amaliy isbotlash hamda bu jarayonlarning samarali texnologiyalarini tavsiya etish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilishi va metodlar

M.K.Muxsinov tomonidan ishlab chiqilgan poxol va boshqa tabiiy o'tli dastalardan pilla teradigan dastgoh yaratilgan. Urug‘chilik korxonasiga naslli pillalar kelish rejasini tuzishning bir necha metodik usullari mavjud. Shulardan birinchisi, keladigan pilla miqdori pilla hosildorligini rejadagi urug‘ taqsimoti raqamiga ko‘paytirish yo‘li bilan; ikkinchi usulda pilla hosildorligini haqiqatda jonlangan qurtlar miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi; uchinchi usul mutaxassis agrotexniklar qurt boqish davrida to‘plagan ma’lum otlarga ko‘ra kelishi kutilayotgan umumiy pilla hosilini aniqlashga asoslanadi va bu usulda biroz taxminga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ko‘rsatmalar 2009—2011-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida O'zbekiston ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti naslchilik laboratoriyasi xodimlari Sh.R. Umarov - q.x.f.n., U.N. N asrillayev- q.x.f.d., professor. O 'zbekiston qishloq xo ‘jalik ilmiy-ishlab chiqarish markazi muxbir a’zosi, B.U.Nasirillayev - b.f.n., K.S.G‘iyosova — ilmiy xodim tomonidan ishlab chiqilgan[1].

Muhokama va natijalar

Ipak kurtining keyingi oziqlanmaydigan davrlariga o'tish vaqtida tanani dushmanlaridan va tashqi noqulay sharoitdan himoya qiluvchi biologik qurilma – pilla hisoblanadi. Ya'ni qurt dastlab g'umbakka, so'ngra g'umbakdan kapalakka aylanadigan joyidir. Beshinchi yoshining oxiriga kelib, ipak qurtining oziqlanish

davri tugallanadi. Qurt barg yemay qo'yadi va ichakdagi keraksiz chiqindi moddalami chiqarib tashlab, pilla o'rash uchun joy izlab, o'rmalab yuradi. Ipak qurtlari pilla o'rash uchun jadal harakat bilan dastaning orasiga yoki so'kchaklaming yon yog'ochlari tomon g'anadan balandroq joylarga o'rmalab ketadi, ya'ni o'ziga qulay joy qidiradi. Ammo ba'zi qurtlar g'anada qolib, bemalol pilla o'rayveradi. Qurtlaming pilla o'rashi uchun eng qulay joy dasta hisoblanadi. Pilla o'rash, asosan, to'rt bosqichdan iborat:

1) o'rmoncha hosil qilish;
2) 10s qavati hosi1 qi1ish;
3) pillaning asosiy qobig'ini o'rash;
4) pillaning ichki parda qavatini o'rash.

Birinchi bosqich. Qurt dasta bo'ylab yuqoriga ko'tarilib, dastaning plla o'rash bo'shlig'i hosil bo'ladigan yerga joylashib olib, pilla o'rash mumkin bo'lgan tarzda o'rnashgan novdachalarni izlaydi. Shunday joyni topib, qurt dastlab bo'shliq atrofidagi novdachalarni ipak tolalari bilan bir-biriga tutashtiradi. Tutashtirilgan bu novdachalar va ularni birlashtirib turuvchi ipak tolalari bo'shliqning tashqi devorini hosil qiladi. Shundan keyin qurt bo'shliqning ichiga ipak tolalarini torta boshlaydi, ya'ni chulg'amlar hosil qiladi. Bular bo'shliqning ichki tomonini to'ldiradi, hatto bu bo'shliqning o'rta qismi ochiq qoladi *(1-a-rasm).*

Ikkinchi bosqich. Qurt ipak tolalarini oldindan tortib qo'yilgan hovonlarga tutashtirib, bo'lajak pillaning shaklini yasaydi. Pilla o'rashning bu bosqichida ipak tolalari yanada g'ovakroq o'raladi, bo'shliq orasidagi ochiqjoy pilla sig'adigan hajmgacha juda kichrayib boradi. Bu bo'shliqqa joylashish uchun ipak qurti Charfi shaklida bukilib oladi va soxta oyoqlari yordamida yasalgan yuza Ьo'ylab surilib, tanasining oldingi qismini yoysimon harakatlantirish yo'li bilan bu qavatga ipak tolalarini to'playdi *(1-b-rasm).*

Uchinchi bosqich. Ipak qurti harakatlana olishi mumkin bo'lgan bo'shliq tobora kichraya boradi va qurt faqat boshi hamda bir-ikki ko'krak bo'g'imlari bilan harakatlanadigan bo'lib qoladi *(1-d-rasm).*

To'rtinchi bosqich. Ichki parda qavatni o'rashda qurt tanasi birmuncha qisqaradi, boshining bir me'yordagi harakati buziladi, anchagina ingichka va seritsini kam bo'lgan ipak tolalari cho'ziq, noto'g'ri shaklli halqalar ko'rinishida o'raladi. Ipagini tortib bo'lmaydigan g'ovak parda hosil bo'ladi. G'umbakning boshi turgan joyda bu parda yana ham g'ovakroq bo'lib, asosiy qobiqdan biroz qochibroq turadi. Shu bilan ipak qurtining pilla o'rash davri tugallanadi[2]. Ipak qurtining pilla o'rash davrida turli holatda harakatlanib ipak tolasini tashlash jarayoni pilla o'rash biodinamikasi*(2-rasm)* deb ataladi[3].




Asosiy qavatini o‘rashi va o‘rab bo‘lgan pilla Pilla ichida qurtni g‘umbakka aylanishi

2-rasm. Pilla o‘rashning biodinamikasi.

Pilla o'rash jarayoni tugallangandan keyin qurtlar beshinchi marta po'st tashlaydi. Ammo bu safar ular eski po'stini pilla ichida tashlab, g'umbakka aylanadi. G'umbaklik davri ipak qurti rivojlanishining harakatsiz, oziqlanmaydigan davridir. Bu davr mobaynida metamorfoz yuz beradi, ya'ni ipak qurti kapalakka aylanadi.

1-rasm. Pilla o‘rash



a – qurt dastaga o‘rmashib, “o‘rmoncha” yasamoqda; b – qurtning pilla qobig‘i tashqi qavatini o‘rash vaqti; d – qurt pilla o‘ramoqda.

Pillalaming biologik va, ayniqsa, texnologik xossalariga irsiyatdan tashqari, pilla o'rash sharoiti: harorat, namlik, yorug'lik, shamollatish (aeratsiya), dastalarning miqdori va sifati ham katta ta'sir etadi. Pilla o'rash vaqtida haroratning o'zgarishi natijasida qurtning pilla qobig'iga ipak tolalarini o'rash tezligi va xarakteri ham

o'zgaradi. Harorat oshib borgani sari, ipak qurtining harakat tezligi ham ortadi, boshining tebranish kengligi kattalashadi. Harorat 21 C bo'lganda, ipak qurti 3,17 soniya mobaynida bo'yi 3,5 mm, ipak tolasining yo'g'onligi 24,91 mikron keladigan bitta sakkizlik hosil qiladi. Bunda ipak tolasini chiqarish tezligi soniyasiga 2,11 mm bo'ladi. Harorat 29 C bo'lganda, ipak qurti bo'yi 4,6 mm keladigan sakkizliklar hosil qiladi, bunda har bir sakkizlik uchun faqat 1,69 soniya vaqt sarflaydi, ipak tolasining yo'g'onligi 20,43 mikrongacha kamayadi, sakkizliklar hosil qilish tezligi esa soniyasiga 6,01 mm gacha ortadi.

Pilla o'rash davrida havoning nisbiy namligi ham katta rol o'ynaydi. Havoning nisbiy namligi 80-85 foiz bo'lganda (boshqa hamma sharoit qulay bo'lsa ham) pillalarning biologik ko'rsatkichlari va texnologik xossalari juda yomonlashib ketadi. I.Xolmetovning ma'lumotlariga qaraganda, havo harorati 27 C ga va namligi 70 foizga ko'tarilishi, shuningdek, haroratning 25 C ga va namlikning 60 foizga kamayishi ipak qurtining umumiy mahsuldorligini kamaytiradi hamda olinadigan xomashyoning sifatini pasaytiradi. Bundan tashqari, g'umbak bilan pilla qobig'i o'rtasidagi me'yor (munosabat) buziladi. Past haroratli va yuqori namlikdagi havoda va past namlikda esa, aksincha, yengilroq bo'ladi.[3]

Bargga to‘ygan ipak qurtlar beshinchi yoshining 8-9-kunlariga kelib, oziqlnishdan to‘xtaydi va organizmlarni chiqindilardan tozalab, pilla o‘rash uchun qulay joy izlay boshlaydi. Pilla xosilining sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatiladigan dastaning xili, sifati va miqdoriga bog‘liq. Dastalar serob va sifatli bo‘lsa, yetishtirilayotgan pillaning navi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Pilla terish vaqtida avvalo dastadagi nobud bo‘lgan qurtlar va po‘stidagi qora dog‘lari ko‘rinib turgan pillalar – qora pachoq pillalar olib tashlanadi. Dastavval sukchakning pastki qavatlaridagi, keyin o‘rta va yuqori qavatlaridagi pillalar teriladi. Ular yopishgan xas-cho‘pdan tozalab uch guruhga bo‘linadi: navdor, ya’ni benuqson pillalar, brak pillalar va qora pachoq pillalar.[4] Pilla terilib navlarga ajratilgan kuni pilla qabul qilish punktlariga jo‘natiladi.

Xulosa.

Ipak qurtlarining o‘ziga xos biologic xususiyatlaridan tashqari tut bargaining sifati va ob-havoga ham bog‘liq bo‘lishini unutmasligimiz lozim.

Yangi pilla o‘rash boshlangandan keyin yeti kun o‘tgach sanoatbop, 8-9 kundan keyin esa naslli pillalarni terishga kirishilar ekan. Pillalardagi qurtlar g‘umbakka aylanganiga ishonch hosil qilish uchun so‘kchakning turli joylaridan 10-12 tadan pilla silkitib yoki kesib tekshirib ko‘rish lozim. Tekshirib ko‘rilgan pillalar ichidagi qurtlar g‘umbakka aylangan bo‘lsa pilla terishga kirishish mumkin bo‘ladi.

[3] N.Axmedov “Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi” Toshkent “cho’lpon” 2014. B.344

[4] https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/qishloq-va-o-rmon-xo-jaligi/pilla-o-rash-terish-navlarga-ajratish-va-topshirish-tirik-pillalarni-qabul-qilish-va-ularga-dastlabki-ishlov-berish

Shuningdek, pillaxonalarni kerakli asbob-uskuna va mehanizmlar bilan ta’minlash, bajariladigan texnologik jarayonlarni bir-biriga bog‘lab reja va hisob-kitob bilan ish tashkil qilishga bog‘liq. Bunda pillalar sifatining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik oldimizda turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Ahmedov. S.Navruzov “Ipak qurti urug‘chiligi” – Toshkent “Voris-nashriyot” 2014. B.198

2. N.Ahmedov “Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi” – Toshkent “Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi” 2014. B.368

3. Y.Mirzayeva “Tut ipak qurti biologiyasi” – Toshkent “Navro‘z nashriyot” 2017. B.276

4. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/qishloq-va-o-rmon-xo-jaligi/pilla-o-rash-terish-navlarga-ajratish-va-topshirish-tirik-pillalarni-qabul-qilish-va-ularga-dastlabki-ishlov-berish

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Turaxonova Muqaddas Xudoyberdiyevna
Toshkent viloyat Qibray tumanidagi
45-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7270999

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilar nutqini o‘stirishning zamonaviy usullaridan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar: nutq o‘stirish, “Lahzalik savol-javob” metodi, “Aniq ma’lumot” usuli, “Tasvirlar” usuli.

Annotation: This article provides examples of modern ways to develop students' speech in extracurricular activities in their native language and reading literacy.

Keywords: speech development, Instant Question and Answer Method, Accurate Information Method, Image Method.

Аннотация: В данной статье приведены примеры современных способов совершенствования речи учащихся во внеурочной деятельности на родном языке и читательской грамотности.

Ключевые слова: развитие речи, метод «Мгновенный вопрос-ответ», метод «Точная информация», метод «Образы».

Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdiur. Nutq o‘stirish uch yo‘nalishda olib boriladi. So‘z ustida ishlash,so‘z birikmasi va gap ustida ishlash, bog‘lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning nutqini ravon o‘stirish nafaqat dars jarayonida balki sinfdan tashqari o‘qish darslarida ham izchillik bilan olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, ularning bo‘glanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish uchun har xil metodlar va vositalar orqali olib borilishi kerak.

O‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘stirish borasida 1-sinf o‘quvchilari bilan quyidagi ishlarni olib bordim. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish bo‘yicha amaliyotda qo‘llangan va samara bergan usullardan na’munalar.

1-usul: “Lahzalik savol-javob” metodi.

Bunda ixtiyoriy bir so‘zni olinib masalan “Matematika” so‘zi va doskaga katta harflarda yoziladi. O‘quvchilarga go‘yoki topshmoq tarzida savollar beriladi.

1. Asosan raqamlar va to‘rt amallar ishtirok etadigan fan?

Javob: matematika

2. Asalni hush ko‘ruvchi hayvon?

Javob: ayiq

2. Mevasining nomi uzum deb ataluvchi daraxt nomi?

Javob: tok daraxti

3. Un elanadigan oshxona buyumi?

Javob: elak

4. Quyosh sistemasidagi yerdan keyingi turadigan sayyorani nomi?

Javob: Mars

5. Otaning opasi yoki singlisi nima deb chaqiriladi?

Javob: amma

6. Kiyim-kechaklar tikadigan hunar egasi kim deb ataladi?

Javob: tikuvchi

8.Sudralib yuruvchi hayvon?

Javob:ilon

9. Dehqonlar hosillarini yig‘adigan fasl?

Javob:kuz fasli

10. Bir uyada 60 mingtagacha yashaydi. Bir qoshiq asal olish uchun 19 mingta gul changini yig‘ishadi. Ushbu ma’lumot qaysi hashorat haqida?

Javob: asalari

O‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri aytilgan javoblarning birinchi harflari doskaga ketma-ketlikda yoziladi va “Matematika” so‘zi hosil bo‘ladi. Ushbu “Lahzalik savol-javob’ o‘yinini o‘tkazishdan maqsad: Savollarga javob berish orqali topqirlik bilan tezkor javob berishga o‘rgatiladi. Kerakli so‘zni hosil qilish uchun boshqa fanlarni bo‘glagan holda savollar beriladi.Turli xil so‘zlarning harflaridan yangi so‘z hosil qilish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

2-usul: **“Aniq ma’lumot” usuli**.

Sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab 2 ta yoki 3 ta guruhlarga bo‘linadi.Kartochkalarga matn tuzsa bo‘ladigan so‘zlar yoziladi. Masalan, qish fasli, hayvonlar, suv kabi aniq ma’lumot berilishi talab qilinadigan so‘zlardir. Guruhlardagi o‘quvchilardan bir nafar o‘quvchilar chiqib kartochkalardan birini tanlaydi va joylariga qaytishadi. Guruhlarga shart tushuntiriladi. Har bir guruh o‘zlariga tushgan mavzu bo‘yicha jamoa bilan birlashib aniq ma’lumotlar tayyorlash va guruhdagi har bir o‘quvchi bir yoki ikkatadan ma’lumot aytish kerakligi va bir-birining malumotlarini takrorlash mumkin emasligi tushuntiriladi. Guruhlarga mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt beriladi. Barcha guruhlar tayyor bo‘lgach birinchi tayyor bo‘lgan guruhdan boshlab ma’lumotlar qabul qilinadi va boshqa guruhlarga

ma’lumotlarni tinglash va aytilmay qolgan ma’lumotlar orqali mavzuni kengroq yoritish tushuntiriladi.

Ushbu usul orqali o‘quvchilar bir jamoa bo‘lib ishlash, bir maqsad sari harakat qilish, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan ma’lumotlari orasidan to‘g‘risini topib berilgan mavzu asosida matn tuzish, bir-birini ziyraklik bilan tinglash kabi ko‘nikma, malakalar rivojlantirib boriladi.

3-usul.

“Tasvirlar” usuli.

Odatda darslarda bir yoki bir nechta rasmlar orqali matn tuzishga o‘rgatiladi. “Tasvirlar” usuli orqali sinfdagi har bir o‘quvchi alohida matn tuzadi va turli xil mavzularda kichik-kichik matnlar, ijod qilishadi. Parta ustiga turli xildagi rasmlar teskari qilib qo‘yib chiqiladi va o‘quvchilar rasmlardan birini tanlab oladilar. Ushbu usullar orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlanrish bog‘lanishli matnlar tuzishga o‘rgatib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. “O‘qituvchi”.2003 yil. 86-93 bet

2.Fuzailov S. va boshqalar. Ona tili III sinf. Toshkent.2003 yil. 94-98 bet

3.Ikromova va boshqalar. Ona tili IV sinf. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2003 yil. 92-104 bet.

4.G‘ulomova X. va boshqalar. I sinfda ona tili darslari. Toshkent. Sharq 2003 yil. 97-103 bet.

5. Qosimova K.Neymatova A. II sinfda ona tili darslari. “O‘qituvchi kitobi”. Toshkent. Cho‘lpon 2004 yil. 100-108 bet.

6. Xudoyberganov M. va boshqalar. III sinfda ona tili darslari. Toshkent: “O‘qituvchi”. 2004 yil. 93-100 bet.

7. G‘ulomova X. va boshqalar. IV-sinfda ona tili darslari. Toshkent: “O‘qituvchi” 2003 yil. 101-119betlar.

RASMIY USLUBNING USLUBLAR ICHIDAGI O‘RNI

Toshlonova Sitoraxon Inomjon qizi
Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271015

Annotatsiya: bugungi maqolamizda rasmiy-idoraviy uslubning boshqa uslublardan o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganib chiqilgan, bundan tashqari bu uslubning leksik-semantik, grammatik jihatdan tahliliga ham alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, ishonchnoma, subyektiv baho ifodalovchi shakllar.

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog‘ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo‘lishi. Bu uslubda ham so‘zlar o‘z ma'nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma'lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, belgilansin, o‘tkazilsin, tayinlansin kabi so‘z va so‘z birikmalari ko‘plab uchraydi.

Rasmiy- idoraviy uslubning boshqa uslublardan asosiy farqlaridan biri lug‘aviy va grammatik xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Ushbu uslub leksikasi, asosan, kitobiy va xolis so`zlardan iborat bo`lishi bilan birga shu uslub bo`yog‘iga ega bo`lgan yuqorida ko`rsatilgan, quydagi imzo chekuvchilar yo‘llanadi, qabul qilib oluvchi mazkur kabi so`z va turg‘un birikmalarini ham o`z ichiga oladi. Rasmiy - idoraviy uslubi leksikasining yana bir xususiyati unda proffisional yuridik, diplomatik, ma'muriy terminologiyaning mavjudligidir. Akt, guvohnoma, qaror, hal qiluv qarori, qidirish, elchixona muxtor elchi, ishonchli vakil, shartnoma, bayonot. Mazkur uslubdagi ko`plab ma'muriy va adliya sohalarida qo`llanilgani uchun u ko`p janrli uslub sanaladi. Rasmiy-idoraviy uslubda eskirgan so`z va iboralar o`rni bilan ishlatilishi mumkin.

Ushbu uslubning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari mavjud bo‘lsa ham, qat’iy qonun-qoidalarga amal qiladi, binobarin, o‘zining til me’yorlariga rioya qiladi. Shulardan biri aniqlikdir. Bu uslubning boshqa uslublardan ahamiyatli jihatlaridan yana biri rasmiy matnlarda noaniqliklarga, izohtalab o‘rinlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Fikr va mazmun soda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi lozim: Men, Salimov Karim Olimovich, 1980-yil 15-sentyabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug‘ildim.

Otam-Salimov Olim Oripovich Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘qituvchi, onam-Rahimova Gulnora Azimovna 122- bolalar bog‘chasida bosh tarbiyachi bo‘lib ishlaydilar.

Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo‘laklarining odatdagi tartibda bo‘lishiga rioya qilinadi: K.S.Hotamov Toshkentda 2 oylik malaka oshirish kursida bo‘lishi davrida korxonaning bosh mutaxassislik vazifasi muhandis Mamatov Rahmonali Abduxoliq o‘g‘liga Yuklatilsin. Iqtisod bo‘limning katta mutaxassisi A.Saidbekova 2019-yil 10-maydan o‘z roziligi bilan shu bo‘limning yetakchi mutaxassisi lavozimiga O‘tkazilsin.[5] Rasmiy uslub hozirgi o‘zbek tilining davlat-ma’muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo‘ladigan ko‘rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar ta’kidlaganimizdek ana shu uslubda shakllanadi. Ushbu uslubning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari mavjud bo‘lsa ham, qat’iy qonun-qoidalarga amal qiladi, binobarin, o‘zining til me’yorlariga rioya qiladi. Shulardan biri aniqlikdir. Bu uslubning boshqa uslublardan ahamiyatli jihatlaridan yana biri rasmiy matnlarda noaniqliklarga, izohtalab o‘rinlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Fikr va mazmun soda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi lozim: Men, Salimov Karim Olimovich, 1980-yil 15-sentyabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug‘ildim. Otam-Salimov Olim Oripovich Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘qituvchi, onam-Rahimova Gulnora Azimovna 122- bolalar bog‘chasida bosh tarbiyachi bo‘lib ishlaydilar.

Badiiy, so‘zlashuv, publitsistik uslublarda so‘zlarni qolipga solmay, nutq sharoitiga qarab erkin foydalansa bo‘ladi. Rasmiy-idoraviy uslubda fikr-mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Masalan, 1-ilovadagi ishonchnoma shakliga e’tiborimizni qaratsak:

1-ilova

ISHONCHNOMA

Men, Andijon davlat universiteti Filologiya fakultetining 1-bosqich talabasi Muhammadjonova Fayzixon Xursandbek qizi, kursimiz talabasi Abdurahmonova Sitoraxon Inomjon qiziga (AB seriyadagi 1192670 raqamli pasportga ega) universitet g‘aznasidan menga tegishli 2021-yil iyun oyi stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

(imzo) F. Muhammadjonova

2021-yil 2-iyul

F. Muhammadjonovaning imzosini tasdiqlayman.

Filologiya fakultetining dekani (imzo) U. Rahimov

(muhr) 2021-yil 2- iyul

[5] Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo’llanma-Toshkent: “O’zbekiston nashriyoti”, 148-149 b.

Yuqoridagi qolipga koʻra, shaxsiy ishonchnoma erkin usulda, odatda, qoʻlda yoziladi, unda, albatta quyidagi zaruriy qismlar boʻlishi kerak:

1. Hujjatning nomi (Ishonchnoma).
2. Ishonch bildiruvchining toʻliq nomi (ismi, familyasi, otasining ismi).
3. Ishonchli shaxs (ishonchnoma berilgan shaxs)ning toʻliq nomi.
4. Ishonchnoma mazmuni (topshirilgan vazifalarni aniq koʻrsatish).
5. Topshirilgan vazifalarni amalga oshirilishi zarur boʻlgan muassasaning nomi.
6. Ishonch bildiruvchining imzosi.
7. Berilgan (yozilgan) vaqti.
8. Ishonch bildiruvchining imzosini tasdiqlagan shaxsning lavozimi va imzosi.
9. Ishonch bildiruvchining imzosi tasdiqlangan sana va muhr.

Shu tarzda ariza, ishonchnoma, bildirishnoma, tabriknoma, ma’lumotnoma, shartnoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning oʻziga xos bayon etish qolipi mavjud.

Leksik-semantik-stilistik jihatdan olib qaraganda esa rasmiy uslubga oid matnlarda badiiy uslubga xos boʻlgan, voqelikni, inson hissiyoti, fikri va harakatlarini obrazli tasvirlashga yoʻnaltirilgan badiiy tasvir vositalari uchramasligi, binobarin, oʻxshatish, epitet, jonlantirish, metafora, mubolagʻa, litota va boshqa vositalar, poetik leksika elementlari deyarli uchramasligini koʻrish mumkin.

Ayni paytda, ularning har birining soʻz va turgʻun birikmalari ham mavjud boʻladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matniga koʻz yugurtirsak, ularda boshqa uslublarda deyarli uchramaydigan atamalar qoʻllaniladi: ma’muriy javobgarlik, fuqarolik majburyati, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jamoat kafilligi jabrlanuvhi bilan yarashuv va boshqalar. Bu kabi atamalarga duch kelishimizning oʻzi ham rasmiy idoraviy uslubning uslublar ichidagi oʻziga xos oʻrnini koʻrsatadi. Bundan tashqari, ish qogʻozlari va ish hujjatlarining xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me’yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatalar doirasidagi soʻz va iboralarga koʻz yugurtiraylik: ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, muxtor elchi, ishonchli vakil, nota, ratifikatsiya, shartnoma, bayonot, qoʻshma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh kabilar.

Ushbu uslub uchun oddiy soʻzlashuv uslubiga oid boʻlgan soʻzlar, jargonlar, ekspress-emotsional boʻyoqdorlikka ega boʻlgan soʻzlarning ham ishlatilishi me’yor sanalamaydi. Shu jihatlari bilan ham rasmiy-idoraviy uslub boshqa uslublardan

keskin farqlanadi. Masalan, girgitton, o‘rgilay, haligi, mullaka, baraka topgur, miyasi g‘ovlab ketdi, churq etmaslik kabi.

Rasmiy-idoraviy uslubning boshqa uslublardan farqli jihatlari bilan bir qatorda o‘xshash tomonlari ham mavjuddir. Muloqot vaziyati va sharoitga muvofiq ilmiy, badiiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslublar nutqning yozma shakliga mansubdir. Bu uslublar, asosan, yozma nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, bu uslublarda yozma shakl yetakchilik qilsa ham, nutqning og‘zaki shaklini ham inkor qilib bo‘lmaydi. Badiiy uslubga tegishli, sahna uchun mo‘ljallangan asarlarda og‘zakilik bo‘lsa, ilmiy uslubga doir bo‘lgan ilmiy ma’ruzalar og‘zaki shaklda namoyon bo‘ladi, lekin rasmiy uslubga tegishli bo‘lgan ish qog‘ozlari faqat yozma nutq orqali yuzaga chiqadi. Bu ham rasmiy-idoraviy uslubning boshqa uslublar ichida yana bir o‘ziga xos xususiyatidir.

Rasmiy uslub grammatik jihatdan ko‘p hollarda ilmiy uslubga o‘xshab ketadi, lekin boshqa uslublardan farqlanib turadi. Masalan, ko‘plik qo‘shimchasi (–lar) ilmiy va qisman rasmiy uslublardan tashqari boshqa uslublarda umumlashtirish, hurmat, taxminlash, kuchaytiruv-ta’kidlash kabi uslubiy ma’nolarni ham qo‘llashda ishlatiladi: Ahmadlar keldi (umumlashtirish); Buvimlar keldi (hurmat); Soat o‘nlarda uchrashamiz (taxminlash); Qalbim quvonchlarga to‘ldi.

Subyektiv baho ifodalovchi –cha; -choq; -loq; -toy; -gina (-kina;-qina) kabi bir qancha qo‘shimchalar bo‘lib, ular kichraytirish-erkalash shakllari deb ham yuritiladi. Bu qo‘shimchalar ot va sifatlarga qo‘shilib, shu so‘zlar ifodalagan narsa va tushunchaga so‘zlochi (yozuvchi)ning subyektiv (salbiy va ijobiy) munosabatini bildiradi: Masalan, Bu shirin qizcha kun bo‘yi nimalarni o‘ylab o‘tirar ekan; Toychoq onasiga ergashib yugurib ketdi; Sho‘rpeshonaginam! Shuncha sinovlarga chidadi; Bolaginam-oppog‘im, bo‘talog‘im-dombog‘im!

Misollar shuni ko‘rsatadiki, ushbu qo‘shimchaga ega bo‘lgan so‘zlar so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslubda ko‘proq uchraydi. Ilmiy va rasmiy uslublrda esa nofaol hisoblanadi.

Bizga ma’lumki o‘zbek tilida gapda so‘zlarning, ya’ni gap bo‘laklarining odatdagi tartibi mavjud bo‘lib, bu tartibga ko‘ra ega kesimdan oldin, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin, to‘ldiruvchi va hol kesimdan oldin va kesim gapning oxirida joylashadi. Ilmiy va rasmiy uslublarda gapda so‘zlarning odatdagi tartibi qat’iy saqlanadi. Masalan, Meni institutning katta o‘qituvchisi lavozimidan o‘z ixtiyorimga ko‘ra ozod etishingizni so‘rayman. Lekin so‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda uslubiy bo‘yoqdorlikni oshirish uchun gap bo‘laklari tartibi o‘zgarishi (inversiya) mumkin: Omoch sudrab, qo‘sh haydardi, Azob edi u hayot. Qarimasdi o‘sha mahal, Qani, bo‘lsa bitta ot! (A. Muxtor “Mukofot”).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma-Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020.
2. Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili.
3. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldashev I. Davlat tilida ish yuritish.-Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish.-Toshkent: “Cho‘lpon”, 2013.
5. Qo‘ng‘urov R, Karimov S. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. Bibliografik ko‘rsatkich. Samarqand, 1984.
6. Suyarova A. O‘zbek tilida ish yuritish. Uslubiy qo‘llanma-Namangan, 2018.
7. Abzalova M., Yo‘ldasheva D. Tilshunoslikka kirish-Toshkent: “Universitet”, 2005.
8. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi-Toshkent: “YURIST MEDIA MARKAZI”, 2009.
9. Nurmonov A., Sobirov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili-Toshkent: “ILM ZIYO”, 2013.

ANALYSIS OF DEFINITIONS OF LITOTES SUGGESTED BY SCHOLAR

Tulanova Ominabonu Ğulomjon qizi
Student at Andijan State university
Egamnazarova Durdona Shuhratillaevna
Associate professor at Andijan State university
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271045

Abstract: Nowadays, it is very important to use stylistic devices and differenciate them in both oral and written speech. The current article is dedicated to the analysis of definitions of litotes by different linguists. In this article the author tried to compare them in particular.

Key words: Language, stylistics, litotes, stylistic devices, definition, negation, double negation.

АНАЛИЗ ОПРЕДЕЛЕНИЙ ЛИТОТ, ПРЕДЛОЖЕННЫХ УЧЁНЫМИ

Аннотация: В настоящее время очень важно использовать стилистические приёмы и различать их как в устной, так и в письменной речи. Настоящая статья посвящена анализу определений литоты разными лингвистами. В этой статье автор попытался сравнивать их отдельно.

Ключевые слова: Язык, стилистика, литоты, стилистические приёмы, определение, отрицание, двойное отрицание.

LITOTAGA OLIMLAR TOMONIDAN BERILGAN TA`RIFLARNING TAHLILI

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda og`zaki va yozma nutqda stilistik vositalardan foydalanish va ularni farqlash juda muhimdir.Ushbu maqola turli tilshunoslar tomonidan litotaga berilgan ta`riflarning tahliliga bag`ishlanadi.Ushbu maqolada muallif ularni alohida solishtirishga harakat qildi.

**Kalit so`zlar:** Til,stilistika, lilotalar, stilistik vositalar, ta`rif, inkor qilish va ikkilamchi inkor.

Litotes have really significant role in stylistics, make the speech polite that shows the attitude of the speaker to the listener from cultural point of view. Their stylistic functions of giving ironic and humorous effect to the utterance, make the statement more expressive, attract every writer and the listener and understates, lessens the main aspect of the speech. This phenomenon increased our interest in

litotes and their stylistic functions and influenced on choosing the theme of the article.Many scholars analyzed litotes and tried to give clear definition for them,which we will analyze further.

Merriam-Webster Dictionary defines litotes as ―understatement in which an affirmative is expressed by the negative of the contrary‖, in other words, litotes is affirmation expressed through double negation. The functioning of litotes depends of the factors which are considered to be pragmatic constituents of any text as a means of communication: participants of the communication, pragmatic intention, pragmatic content, pragmatic effect and pragmatic potential [3,p 51;1,p 172]

A lot of modern scientists (T. van Dijk, M.Reisigl and R.Wodak, K. Knorr Cetina) underline that together with metaphor litotes is one of the most powerful means of persuasive communication. The use of litotic statements is an example of linguistic manipulation, when authors intentionally apply some kind of language means to subliminally achieve the desirable result. Such features of litotes as negation and disharmony make it possible to employ litotes in two extreme cases when litotic statements are marred by negative connotations to stress and criticize negative features and litotes are used to highlight positive characteristics.

Litotes is a figure of speech in which understatement is employed for rhetorical effect, principally via double negatives. For example, rather than saying that something is attractive (or even very attractive), one might merely say it is "not unattractive".

Litotes is a form of understatement, always deliberate and with the intention of emphasis. However, the interpretation of negation may depend on context, including cultural context. In speech, it may also depend on intonation and emphasis; for example, the phrase "not bad" can be said in such a way as to mean anything from "mediocre" to "excellent". It can be used to soften harsher expressions, similar to euphemism.The use of litotes is common in English, Russian, German, Dutch and French. They are features of Old English poetry and of the Icelandic sagas and are a means of much stoical restraint.The word litotes is derived from the Greek word litotes meaning "plain, small or meager". [2,p 134]

Rawson Hugh complained about overuse of the 'not un...' construction in his essay. For example:"My word...it shall not return unto me void," meaning "My word...will have meaning and be important"

For example:"I will multiply them, and they shall not be few; I will make them honored, and they shall not be small," meaning "they shall be very many" and "they shall be very great"

For example:"They do not profit this people at all," meaning "they lead these people astray"

Usually litotes presupposes double negation. One is through a negative particle (no, not) the other is through a word with negative meaning. Its function is to convey doubts of the speaker concerning the exact characteristics of the object or a feeling.

For example: It's not a bad thing - It's a good thing.

For example: He is no coward. He is a brave man.

For example: He was not without taste.

Rarely heard, but extensively used - that is litotes among the regular speakers of English language. Popularly a figure of speech, the word 'litotes' originated from the Greek word 'litotes' which means simple. Litotes is defined as **“an ironical understatement in which affirmative is expressed by the negation of the opposite”.** In this figure of speech, the usages are intentional, ironical and provide emphasis to the words. This is mainly done through double negatives. To put it in simple terms, in litotes, instead of saying that something is attractive, you say that it is not unattractive. In literary circles, plenty of poets as well as writers have used this concept to convey strange and vivid images. It changes the thought process and thereby beautifies and adorns the literary works. Most of the literary works describe litotes in such a way that the words described are not false, but do not come near a complete description of the action in question. Rather, they are presented in a passive tone and demand more careful attention from the reader. Even figurative language use litotes to convey messages in a clear and impressive manner. [4, p 215]

Litotes is a two-component structure in which two negations are joined to give a positive evaluation. Thus "not unkindly" actually means "kindly", though the positive effect is weakened and some lack of the speaker's confidence in his statement is implied. The first component of a litotes is always the negative particle "not", while the second, always negative in semantics, varies in form from a negatively affixed word (as above) to a negative phrase and to make it polite.

Litotes is especially expressive when the semantic center of the whole o structure is stylistically or and emotionally colored, as in the case of the following occasional creations.

For example:"Her face was not unhandsome" or "Her face was not unpretty".

The function of litotes has much in common with that of understatement – both weaken the effect of the utterance. The uniqueness of litotes lies in its specific "double negative" structure and in its weakening only the positive evaluation.[5]

As a conclusion,I can compare litotes with various cultures, because they deliver us information about cultural life of other nations. Litotes also reflect an inner aspect of people consciousness. The main motivation of working the theme of this article is because that this phenomenon stimulates our curiosity in litotes and their stylistic functions. The research included very tremendous investigation that we discover a definition of litotes by different scholars. Litotes remain in the language, but they are

used as stylistic devices to express politeness through double negations. Litotes usually do not use exact or direct meaning of the aspect but it hides and supplies indirect meaning weakening the statement.

References:

1.Bazhenova, I.S. (2003) Emotions, pragmatics, text. Moscow:Manager – 172p.

2.Holder R.W. A Dictionary of Litotes. – London: Oxford University Press, 2003. 134 p.

3.Nayer, V.L. (2002) Stylistics and pragmatics. Moscow:MSLU – 51p.

4. Rawson, Hugh, A Dictionary of Litotes and Other Doublespeak, second edition. – Chicago: McGrow ISB., 1995. – 215 p.

5.http://fos.iloveindia.com/litotes-examples.html

“TURKISTON LEGIONI” TO‘G‘RISIDA XORIJIY MANBALAR

Zohidjon Xoldorov
Namangan davlat universiteti
tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271053

Annotatsiya: Maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida asir tushgan turkistonlik sovet askarlaridan tuzilgan «Turkiston legioni» tarixi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu legionni tashkil etgan asli turkistonlik bo‘lgan shaxslar to‘g‘risida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Serik Shakiboyev, “Katta Turkistonning qulashi”, “Molotov-Ribbentrop” shartnomasi, Mustafo Cho‘qay, Gennadiy Kolbin, Anvar Alimjonov, “Nemis svastikasi va sovet yulduzi o‘rtasida”, “Kollaboratsionizm. Ikkinchi jahon urushi tabiati, tipologiyasi va ko‘rinishlari”.

Gitler Germaniyasi 1941-yil 22-iyun kuni SSSR hududiga bostirib kiradi[6]. SSSR “Molotov-Ribbentrop” shartnomasiga ishonib Germaniya bizga hujum qilmaydi degan fikr bilan hech qanday harbiy tayyorgarlikni amalga oshirmagandi. I. Stalin boshchiligida Mudofaa qo‘mitasi tashkil etilgandan so‘ng, butun davlat bo‘ylab harbiy safarbarlik e’lon qilinadi. Fashislarga qarshi o‘z vatanlarini himoya qilish uchun turkistonlik jangchilar ham frontga yo‘l oladilar.

Germaniya hukumati asir tushgan Sobiq Sovet davlati askarlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun bir qator harbiy legionlarni tuzadi. Shunday harbiy birlashmalardan biri bo‘lgan «Turkiston legioni» 1941-yilning oxiri, 1942-yilning boshlarida shakllandi. Uning asosini urushda asir olingan turkistonliklar tashkil qildilar[7]. «Turkiston legioni» rasman 1941-yil 15-noyabrda tashkil etilgan edi[8]. Urushning dastlabki davrlarida turkistonlik askarlardan asirga tushish holatining ko‘plab bo‘lishining o‘ziga xos sabablari mavjud bo‘lgan. Bu sabablardan biri buyuk o‘zbek yozuvchilaridan biri O‘tkir Hoshimovning «**Tushda kechgan umrlar**» asarida ham keltirib o‘tiladi. Ya’ni, frontning oldingi chizig‘iga asosan turkistonlik askarlar qo‘yilgan va ularning har uchtasiga bitta miltiq qolgan ikkitasiga patronlar berilgan. Bundan tashqari ba’zi bir turkistonliklar yog‘och “miltiq”lar bilan ham jangga kirganlar.

Urushdan keyingi davrda “Turkiston legioni” masalasida bir qator olimlar ilmiy izlanishlarni olib bordilar. Bu olimlar qatorida qozoq, turk, rus, nemis olimlari yirik

[6] https://goaravetisyan.ru/uz/prichiny-2-i-mirovoi-voiny-predposylki-vtoroi-mirovoi-voiny/
[7] Jo’rayev N, Karimov Sh., O’zbekiston tarixi O’zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida Ikkinchi kitob. – T.: «Sharq nashriyoti», 2011. – B. 494.
[8] https://deutschesoldaten.fandom.com/ wiki/Category:Turkestan_Legion.

ishlarni amalga oshirdilar. Tadqiqotchilar orasida nafaqat tarixchilar, balki boshqa soha vakillari ham bo‘lishgan. Misol uchun, urushdan keyin Olmaotada 600 nafar legionerning namoyishi bo‘lib o‘tadi. Keyinchalik Kustanay shahar KGB raisi o‘rinbosari Serik Shakiboyevning “Katta Turkistonning qulashi” kitobi nashr etiladi. Ushbu asarda Mustafo Cho‘qay va uning safdoshlari o‘z xalqining xoinlari sifatida yaqqol ko‘rsatilgan[9].

1986-yil dekabr voqealaridan keyin Qozog‘iston SSRning yangi rahbari Gennadiy Kolbin qozoq ziyolilariga e’tiborni kuchaytirishga qaror qiladi. Shuning uchun respublika ziyolilar elitasi vakillari bilan tez-tez uchrashuvlar tashkil etiladi. Shunday uchrashuvlarning birida 1987-yilda yozuvchi Anvar Alimjonov “Turkiston legioni” muammosiga yangicha yondashish va uning asoschisi Mustafo Cho‘qayni reabilitatsiya qilish masalasini ko‘tarib chiqadi. Ammo o‘sha vaqtda Sovet Qozog‘istonining rahbarlari bu masalani o‘ylamasdan va muhokama qilmasdan kechroqqa qoldirishga qaror qilishadi.

Shuningdek, qozog‘istonlik tadqiqotchi Baxit Sodiqova uzoq izlanishlardan so‘ng “Turkiston legioni tarixiy hujjatlarda” nomli ilmiy asarini chop etadi. Ushbu asarda “Turkiston legion” bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Nemis tarixchisi Patrik fon Syun Mulen o‘zining “Nemis svastikasi va sovet yulduzi o‘rtasida” nomli kitobida bugungi kunda omon qolgan sanoqli turkistonlik legionerlar bir umid bilan – hech bo‘lmaganda o‘lim oldidan o‘z vatanini ko‘rish uchun yashaydi, deb yozadi.

Yevropalik olimlardan **Ronald Cohn** va **Jesse Russell** hamkorlikda “Turkiston legioni” nomli asarni ingliz tilida chop etishadi[10]. Ushbu kitobda “Turkiston legioni” Gitler Germaniyasi tomonidan tashkil etilishi, SSSRga qarshi janga kirishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Yozuvchilar Finnin va Rorylar tomonidan 2022-yilda Toronto universitetida “Boshqalarning qoni: Stalinning Qrim vaxshiyligi va birodarlik poeziyasi” nomli asari chop etiladi[11]. Bu asarda Stalin tomonidan Qrimda uyushtirilgan vaxshiyliklar hikoya qilinadi. Shuningdek, Germaniyaning SSSRga hujum uyushtirishi, ko‘plab Sovet askarlarining Germaniya tomoniga asir tushib qolishi bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar ham keltiriladi. Asarning biz uchun qimmatli jihati shundan iboratki, unda “Turkiston legioni” to‘g‘risida ko‘plab faktlar ketiriladi.

Turkiyalik tadqiqotchilar ham “Turkiston legioni” bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy asarlar yozganlar. Shunday tadqiqotchilardan biri Anvar Altayli tomonidan yozilgan

[9] https://tarikh.kz/sovetskiy-period-istorii-kazahstana/kazahstan-v-gody-vtoroy-mirovoy-voyny/turkestanskiy-legion/
[10] https://www.betterworldbooks.com/product/detail/turkestan-legion-9785511142906
[11] https://books.google.co.uz/books?id=RTRjEAAAQBAJ&pg=PT266&lpg=PT266&dq=novels+about+Turkestan+legion&source=bl&ots=Rs3ySPkJIW&sig=ACfU3U001CtgVzvzZ72faG6Nh79n-_8dPA&hl=ru&sa=X&ved=2ahUKEwiD97G9pqL3AhXslYsKHe0lDnkQ6AF6BAgTEAM#v=onepage&q=novels%20about%20Turkestan%20legion&f=false

“Ozodlik tomon qora yo‘l – Ro‘zi Nazar, Qizil Armiyadan MRBgacha” nomli asarida “Turkiston legioni”ning tuzilishi va uning faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi[12]. Shu bilan birga “Turkiston legioni”ning a’zolaridan biri bo‘lgan Ro‘zi Nazar hayot faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar ham keltiriladi.

Rus tarixchilaridan biri Mixail Ivanovich Semiryaga 2000-yilda “Kollaboratsionizm. Ikkinchi jahon urushi tabiati, tipologiyasi va ko‘rinishlari” nomli kitobni chop etadi[13]. Taniqli rus harbiy tarixchisi, tarix fanlari doktori, professor, Harbiy fanlar akademiyasi akademigi M.I. Semiryaga hisob kitoblariga ko‘ra, Yevropaning bosqinchi mamlakatlarida dushman bilan hamkorlik qilgan fuqarolar soni anchayin ko‘p bo‘lgan. Ushbu asarda Germaniya tomonidan SSSRning asir tushgan askarlaridan tuzilgan bir qator legionlar haqida ma’lumot keltiriladi. Shunday legionlar orasida “Turkiston legioni” to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://goaravetisyan.ru/uz/prichiny-2-i-mirovoi-voiny-predposylki-vtoroi-mirovoi-voiny/
2. Jo‘rayev N, Karimov Sh., O‘zbekiston tarixi O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida Ikkinchi kitob. – T.: «Sharq nashriyoti», 2011. – B. 494.
3. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida) uchinchi kitob to‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. – T.: «Sharq nashriyoti», 2010. – B. 367-368.
4. https://deutschesoldaten.fandom.com/ wiki/Category:Turkestan_Legion.
5. https://tarikh.kz/sovetskiy-period-istorii-kazahstana/kazahstan-v-gody-vtoroy-mirovoy-voyny/turkestanskiy-legion/
6. https://www.betterworldbooks.com/product/detail/turkestan-legion-9785511142906
7. https://books.google.co.uz/books?id=RTRjEAAAQBAJ&pg=PT266&lpg=PT266&dq=novels+about+Turkestan+legion&source=bl&ots=Rs3ySPkJIW&sig=ACfU3U001CtgVzvzZ72faG6Nh79n-_8dPA&hl=ru&sa=X&ved=2ahUKEwiD97G9pqL3AhXslYsKHe0lDnkQ6AF6BAgTEAM#v=onepage&q=novels%20about%20Turkestan%20legion&f=false
8. https://www.scotsman.com/arts-and-culture/books/book-review-dark-path-freedom-ruzi-nazar-red-army-cia-enver-altayli-1448350
9. http://militera.lib.ru/research/semiryaga_mi02/index.html

[12] https://www.scotsman.com/arts-and-culture/books/book-review-dark-path-freedom-ruzi-nazar-red-army-cia-enver-altayli-1448350
[13] http://militera.lib.ru/research/semiryaga_mi02/index.html

TURKISTON MUXTORIYATINING O‘RGANILISH TARIXI

Azimova Yulduz Djura qizi
O‘zMU Tarix fakulteti Toshkent O‘zbekiston
“Arxivshunoslik va manbaashunoslik” kafedrasi
I bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271059

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston Muxtoriyati tarixini o‘rgangan olimlar tarixshunoslarning yozgan asarlari va ularning mazmuni qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston Muxtoriyati, hukumat, I qurultoy, IV qurutoy, “Ulug‘ Turkiston” gazetasi, G.K.Safarov, Ra’no Rajabova, Ravshan Abdullayev, Marat Hasanov, Saidakbar A’zamxodjayev

Hozirgi kunda kam inson bu mavzuga qo‘l urgan bo‘lsa kerak deb, shu mavzuni o‘zim uchun magistrlik dissertatsiyam mavzusi qilgan edim. Vaholanki, son sanoqsiz insonlar: tarixshunos olimlar, manbashunoslar, sharqshunoslar va pedagoglarga ham bu mavzu qiziq ekan. Bunga sabab O‘zbekiston Respublikasining tom ma’noda birinchi mustaqillikka erishgan davri bo‘lgan. Garchi bu muvaqqat hukumat bor yo‘g‘i 72 kun yashagan bo‘lsada, ko‘pgina ziyoli xalqparvar ilm ahli bu mustaqillik uchun jon berganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

1917 yildagi fevral inqilobi Turkiston hayotiga kata o‘zgarishlar olib kirdi. Inqilobdan keyin Turkiston o‘lkasida mustaqillik va ozodlik yo‘lida faoliyat olib boruvchi ko‘pgina siyosiy tashkilotlar, partiyalar, vujudga keldi. Taraqqiyparvar ziyolilar Turkistonga federatsiya asosida muxtoriyat berilishi borasidagi talablari bilan chiqa boshladilar.

Davlatchilik qurilishi masalasiga yondashish, Turkistonning to‘la muxtoriyat olish g‘oyasini ilgari surish milliy gazeta sahifalarida 1917 yil aprel oyidan boshlab ko‘zga tashlanadi[14]. Chunki 1917 yil aprelda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlari I qurultoyining tub maqsadi ham mamlakatni qanday idora qilish hamda milliy hukumat tuzishga hozirlik ko‘rish bo‘lgan.

“Millatlarning o‘z taqdirlarini o‘zi belgilash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi”ga asoslangan holda 1917 yil 27 noyabr sanasida o‘lka musulmonlarining favqulotda IV qurultoyida o‘lkadagi dastlabki milliy demokratik davlat – Turkiston Muxtoriyati tashkil etildi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a’zolaridan Turkiston muxtoriyati hukumati (8 kishidan iborat) tuzildi. Yevropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar

[14] S.Madyarova Turkiston Muxtoriyati tarixshunosligi (1917-2008yy) T.F.N. darajasini olish dissertatsiyasi Toshkent - 2010 yil.

ko‘rsatilishi uchun ularga ham yana 4 o‘rin ajratildi. Hukumat tarkibiga Muhammadjon Tinishboyev (Bosh vazir va ichki ishlar vaziri), Islom Shoahmedov (Bosh vazir o‘rinbosari), Mustafo Cho‘qay (tashqi ishlar vaziri), Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (harbiy vazir), Hidoyatbek Agayev (yer va suv boyliklari vaziri), Obidjon Mahmudov (oziq-ovqat vaziri), Abdurahmon O‘razayev (ichki ishlar vazirining o‘rinbosari), Solomon Gersfeld (moliya vaziri) kiritildi. Keyinchalik hukumat tarkibida ayrim o‘zgarishlar yuz berdi. M. Tinishboyev Alash o‘rda Muxtoriyati faoliyatida qatnashish uchun Orenburgga jo‘nab ketgach (1917-yil), Mustafo Cho‘qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Shoahmedov moliya vaziri (S. Gersfeld o‘rniga), Potelyaxov oziq-ovqat vaziri (O. Mahmudov o‘rniga), O. Mahmudov adliya vaziri, Nosirxon To‘ra maorif vaziri, Saidnosir Mirjalilov hukumat xazinachisi lavozimlarini egallashdi. Savodsiz bolshevik komissarlardan farqli ravishda hukumat a’zolari chuqur ma’lumotli taraqqiyparvar ziyolilar bo‘lib, ulardan 5 nafari huquqshunos edi. Turkiston Millat Majlisi 54 nafar (36 musulmon, 18 yevropalik) a’zodan iborat bo‘lishi kerakligi belgilandi. Qurultoy jarayonida 32 kishidan iborat Millat Majlisi saylandi[15].

Milliy majlis a’zolariga yuqoridagi insonlardan tashqari quyidagi insonlar kirdi: Ubaydulla Xodjayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Sadriddin Sharifxodjayev, Kungirxodja Xodjinov, Ismatulla Ubaydullin, Said Ja’farboy Saidov, Islom Shoaxmedov, Abdurahmonbek Urazayev, Xidoyatbek Yurali Agayev, Nosirxonto‘ra Komolxonto‘rayev, Mirodil Mirzaahmedov, Toshxodja Ashurxodjayev, Abdulqodir Qushbegiyev, Obidjon Mahmudov, Jamshidbek Qorabekov, Abdusamad Abdusalimov, Abdulla Dersalin, Musa Akchirin, Mustafo Mansurov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ibragim Davletshin, Muhammadjon Tinishboyev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboyev, Olimxonto‘ra Shokirxonto‘rayev, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov va boshqalar[16].

“Ulug‘ Turkiston” gazetasining yozilishicha, 1917 yil dekabr oyida Toshkentda 60000 kishi ishtirok etgan miting o‘tkazildi. Munavvarqori rahbarligida uyushtirilgan bu miting qatnashchilari Turkiston Muxtoriyati hukumatini bir ovozda ma’qulladilar va Turkistonda endi uchbu muvaqqat hukumatidan boshqa hech qanday hukumatni tan olmaslikka qaror qilganliklarini e’lon qildilar.

Lekin muvaqqat hukumatning faoliyati uzoqqa yetmadi. 1918 yil 30 yanvardan boshlab Turkiston Muxtoriyatiga qarshi harbiy harakatlar boshlandi. Shu kundan boshlab o‘lkada ommaviy qirg‘inlar boshlandi.

“Ulug‘ Turkiston” gazetasi chuqur qayg‘u bilan xabar berganidek, “20 fevral Xo‘qand(Qo‘qon) tarixining eng dahshatli kuni bo‘ldi. Armanilar ayricha faoliyat

[15] O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligidan Toshkent-2017yil
[16] С.Агзамходжаев. История Туркестанской автономии. Ташкент- 2006 г -194стр

ko‘rsatganlar…” Gazetadagi ushbu maqola “Xo‘qand hozir o‘liklar shahri” degan dahshatli ibora bilan tugaydi.

1918 yil 22-fevral kuni Qo‘qon shahrida Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan “Tinchlik shartnomasi” imzolandi. Ushbu shartnomaning 2-moddasida: “Aholi o‘lka Xalq Komissarlari Soveti hokimiyati va barcha mahalliy sovet tashkilotlCarini tan oladi”, deb yozilgan edi.

Bu muvaqqat hukumat davrini o‘rganilishi G.K.Safarovning “Колониальная революция”[17] asari bilan boshlandi. Bu asarning yozilishiga asos Turkistondagi milliy-ozodlik va inqilobiy harakatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir dialektikasini siyosiy tushunish zarurati bo‘ldi.

O‘zbekistonda tarixchi olimlardan Ra’no Rajabova, Ravshan Abdullayev, Marat Hasanov Turkiston Muxtoriyati hamda 1917 yili Turkistondagi milliy siyosiy partiyalar faoliyati haqida hali sovet davrida – XX asr 80-yillarida dastlabki maqolalarni e’lon qildi. Xususan professor 2006 yilda nashdan chiqqan Saidakbar A’zamxodjayevning doktorlik dissertatsiyasining monografiyasi aynan Turkiston Muxtoriyatining milliy ozodlik kurashidagi harakatlari yorqin aks ettirilgan manbaa sifatida ko‘rishimiz mumkin.

2010 yilda Salima Madyarovaning “Turkiston Muxtoriyatining tarixshunosligi (1917-2008)” himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida o‘sh paytgacha bo‘lgan izlanishlarni qamrab oldi.

2021 yilda Qahramon Rajabov tomonidan ishlangan “Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda majlis a’zolari hayoti va taqdiri” kitobida o‘sha davrning yirik namoyondalaridan tortib oddiy qurultoy a’zolariga qadar insonlarining taqdiri ilmiy jihatdan asoslangan holda yoritib berilgan.

Sovet davri tadqiqotlarining tarixshunoslik tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Turkiston muxtoriyatining bu davrdagi tarixi har tomonlama, xolis yoritilmagan. O‘sha vaqtda Turkistondagi siyosiy vaziyat va aholining bunga qarashlari to‘liq o‘rganilmagan.

Bu Muvaqqat hukumat davri nafaqat bizning davlatimizda balki, boshqa qo‘shni davlatlar orasida ham o‘rganilib kelinmoqda. Ularning qay tarzda mustaqil demokratik davlatga erishilgana olgani, bu hukumatning inqiroziga asl sabab nimalarda ekanligi ularning a’zolari hayoti keyinchalik qanday bo‘lgani har bir tarixchi uchun qiziq bo‘lsa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Madyarova Turkiston Muxtoriyati tarixshunosligi (1917-2008yy) T.F.N. darajasini olish dissertatsiyasi Toshkent -2010 yil.

[17] O’zbek tilida “mustamlakachilik inqilobi” ma’nosini anglatadi. Сафаров Г. Колониальная революция(Опыт Туркестана) – М: Госиздат 1921г

2.O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligidan Toshkent-2017yil

3.С.Агзамходжаев. История Туркестанской автономии. Ташкент- 2006 г - 194стр

4. “Ulug‘ Turkiston”: Turkiston o‘lkasi tatarlari jamiyati byurosining nashri. Toshkent. (1917-1918)

5.Q.Rajabov. “Turkiston Muhtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a’zolari hayoti va taqdiri.” Toshkent -2021yil.

NATURAL SONNI ABSOLYUT BO‘LAKLASHDAGI BUTUN YECHIMLARI SONI

Tursunov Bekzod Burxon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti matematika kafedrasi o‘qituvchisi
Komilov Boburmirzo Otabek o‘g‘li
Andijon viloyati Shaxrixon tumani 41 – umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Zuxirdinov Najmiddin Nasoxxidin o‘g‘li
Andijon viloyati Oltinko‘l tumani 4 – umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271071

Annotatsiya: Bo‘laklashlarga doir masalalar orasida natural sonlarni natural yoki manfiymas butun qo‘shiluvchilar yig‘indisi sifatida tasvirlash masalasi alohida o‘rin tutadi. Bo‘laklanayotgan son o‘rniga undan kichikroq sonlarni bo‘laklash yoki qaralayotgan bo‘laklashni kamroq sondagi qo‘shiluvchilari bo‘lgan bo‘laklashga keltiriladi. Maqolada natural sonni bo‘laklashni butun sonlarda amalga oshirish qaralgan. Bo‘laklanayotgan son umumiy holda bo‘laklashga keltirilgan. Bo‘laklashlar sonini hisoblashning bo‘laklashni berilgan sondan ko‘proq hollardagi masalasi hal qilingan.

Kalit so‘zlar: bo‘laklash, natural son, guruhlash, absolyut bo‘laklash, yig‘indi, umumlashgan teorema.

NUMBER OF WHOLE SOLUTIONS IN ABSOLUTE DIVISION OF NATURAL NUMBER

Abstract: Among the exercises for divisions, the question of describing natural numbers as the sum of all participles, whether natural or whole number, occupies a special place. Instead of the number that is being divisible, the division of smaller numbers from it, or the division that is being looked at, is brought to the division that has the less-than-the-addition of the less-than-the-addition of the number. The article looks at the implementation of splitting a natural number in whole numbers. The number being divided is presented in the general case to divide. The issue of calculating the number of fragments in more cases than the given number of fragments is also solved

Keywords: division, natural number, grouping, absolute division, sum, generalized theorem

ЧИСЛО ЦЕЛЫХ РЕШЕНИЙ НАТУРАЛЬНОГО ЧИСЛА ПРИ АБСОЛЮТНОМ ДЕЛЕНИИ

Аннотация: Среди упражнений на деление особое место занимает вопрос об изображении натуральных чисел как суммы натуральных или отрицательных целых чисел. Разбиение меньшего числа вместо разбиения на части или приведение рассматриваемого фрагмента к разбиению с меньшим числом соединений. В статье приведена реализация деления натурального числа на целые числа. Делимое число приводится к делению в общем случае. Также решен вопрос о подсчете количества фрагментов в тех случаях, когда фрагментов больше заданного числа

Ключевые слова: деление, натуральное число, группировка, абсолютное деление, сумма, обобщенная теорема

Ma’lumki

$$x_1 + x_2 + x_3 + \ldots + x_k = n \qquad (1)$$

tenglamaning nomanfiy yechimlari soni C_{n+k-1}^{n} taga teng [1]. (1) ning barcha natural yechimlari soni C_{n-1}^{k-1} orqali topiladi [2].

Bizni qiziqtirgan masala

$$|x_1| + |x_2| + |x_3| + \ldots + |x_k| = n \qquad (2)$$

tenglamaning butun yechimlari sonini topishdan iborat. Dastlab masalani $k \leq n$ hol uchun yechamiz.

(2) ning har bir butun yechimlarini (1) ning har bir yechimlaridagi natural sonlarni qarama – qarshisiga o‘zgartirish orqali hosil qilamiz.

Masalan: $(p_1, p_2, 0,0, \ldots, 0)$ $(p_1 + p_2 = n, p_1, p_2 \in N)$ orqali yana (2) ning

$$(-p_1, p_2, 0,0, \ldots, 0)$$
$$(p_1, -p_2, 0,0, \ldots, 0)$$
$$(-p_1, -p_2, 0,0, \ldots, 0)$$

yechimlarni hosil qilamiz.

Ko‘rish mumkinki tarkibida 2 ta natural son mavjud (1) ning har bir yechimidan (2) ning $C_2^0 + C_2^1 + C_2^2$ ta butun yechimlarini hosil qilish mumkin.

$C_2^0 - 2$ ta butun yechimlar ichida manfiy yechimlari yo‘q; $(p_1, p_2, 0,0, \ldots, 0)$

$C_2^1 - 2$ ta butun yechimlar ichida bitta manfiy yechim bor; $(-p_1, p_2, 0,0, \ldots, 0)$ va $(p_1, -p_2, 0,0, \ldots, 0)$.

$C_2^2 -$ 2 ta butun yechimlar ichida ikkita manfiy yechim bor; $(-p_1, -p_2, 0,0, \ldots, 0)$.

(1) ning tarkibida 2 ta natural son mavjud barcha yechimlari soni $C_{n-1}^{2-1} \cdot C_k^2$ ta bo‘lib, ularning har biri orqali $C_2^0 + C_2^1 + C_2^2 = 2^2$ ta (2) ning butun yechimlarini hosil qilish mumkin. Demak, (2) ning tarkibida noldan farqli ikkita butun sonlar qatnashgan yechimlari soni $(C_2^0 + C_2^1 + C_2^2) \cdot C_{n-1}^{2-1} \cdot C_k^2 = 2^2 \cdot C_{n-1}^{2-1} \cdot C_k^2$ ga teng.

Huddi shunday mulohaza yuritishni davom ettirib tarkibida k ta natural son qatnashuvchi (1) tenglamaning yechimidan $2^k \cdot C_{n-1}^{k-1} \cdot C_k^k$ ta (2) ning yechimlarini hosil qilish mumkin. $1 \leq k \leq n$ bo‘lganda (2) ning barcha butun yechimlari soni

$$\sum_{i=1}^{k} 2^i \cdot C_{n-1}^{i-1} \cdot C_k^i$$

formula orqali topiladi.

Yuqoridagi natijalarni umumlashtirgan holda quyidagi teoremani keltirish mumkin:

Teorema.

Berilgan $k, n \in N$ $(k \leq n)$ sonlar uchun $|x_1| + |x_2| + |x_3| + \ldots + |x_k| = n$ tenglamaning $x_i \in Z, i = \overline{1,k}$ shartlarni qanoatlantiruvchi $x = (x_1, x_2, x_3, \ldots, x_k)$ yechimlari soni S_n^k quyidagicha topiladi:

$$S_n^k = \sum_{i=1}^{k} 2^i \cdot C_{n-1}^{n-i} \cdot C_k^i$$

1 – misol.

$$|x_1| + |x_2| + |x_3| = 3$$

tenglama nechta butun yechimga ega?

Yechish: $n = 3, k = 3$ da S_n^k ni hisoblaymiz.

$$S_n^k = \sum_{i=1}^{3} 2^i \cdot C_{3-1}^{i-1} \cdot C_3^i = \sum_{i=1}^{3} 2^i \cdot C_2^{i-1} \cdot C_3^i = 2^1 C_2^0 C_3^1 + 2^2 C_2^1 C_3^2 + 2^3 C_2^2 C_3^3 =$$

$$= 6 + 24 + 8 = 38$$

demak, tenglama 38 ta butun yechimga ega.

Yechimlarni ketma – ket yozib chiqish orqali ham ularning sonini ko‘rsatish mumkin.

(3,0,0)	(1,2,0)	(-1,2,0)	(-1,0,2)	(0,-1,2)	(1,1,1)	(-1,1,-1)
(0,3,0)	(2,1,0)	(1,-2,0)	(1,0,-2)	(0,1,-2)	(-1,1,1)	(-1,-1,-1)
(0,0,3)	(1,0,2)	(-1,-2,0)	(-1,0,-2)	(0,-1,-2)	(1,-1,1)	
(-3,0,0)	(2,0,1)	(-2,1,0)	(-2,0,1)	(0,-2,1)	(1,1,-1)	
(0,-3,0)	(0,1,2)	(2,-1,0)	(2,0,-1)	(0,2,-1)	(-1,-1,1)	
(0,0,-3)	(0,2,1)	(-2,-1,0)	(-2,0,-1)	(0,-2,-1)	(1,-1,-1)	

Biz (2) masalani $k \leq n$ hol uchun hal qildik. Tenglamani $k > n$ hol uchun yechganimizda har bir yechim tarkibida ko‘pi bilan n ta butun son qatnashadi va qolgan barcha butun yechimlar faqat nollardan iborat bo‘ladi. (2) ning barcha yechimlarini (1) ning barcha nomanfiy yechimlaridagi natural sonlarni qarama – qarshisiga o‘zgartirib hosil qilganimiz sababli $k > n$ holda ham shunday yo‘l tutamiz. Hisoblashlarda bo‘laklashlar soni $k > n$ da n tadan ortib ketmaydi.

Demak bo‘laklashlar soni umumiy holda ko‘pi bilan k ta yoki n tadan iborat bo‘ladi va quyidagi umumlashgan teorema o‘rinli

Umumlashgan teorema.

Berilgan $k, n \in N$ sonlar uchun $|x_1| + |x_2| + |x_3| + \ldots + |x_k| = n$ tenglamaning $x_i \in Z, i = \overline{1,k}$ shartlarni qanoatlantiruvchi $x = (x_1, x_2, x_3, \ldots, x_k)$ yechimlari soni S_n^k quyidagicha topiladi:

$$\bar{S}_n^k = \sum_{i=1}^{\min(n,k)} 2^i \cdot C_{n-1}^{n-i} \cdot C_k^i$$

2 - misol.

$$|x_1| + |x_2| + |x_3| = 2$$

tenglama nechta butun yechimga ega?

Yechish: $n = 3, k = 3$ da $\bar{S}_n^k$ ni hisoblaymiz.

$$\bar{S}_2^3 = \sum_{i=1}^{\min(2,3)} 2^i \cdot C_{2-1}^{2-i} \cdot C_3^i = \sum_{i=1}^{2} 2^i \cdot C_1^{2-i} \cdot C_3^i = 2^1 C_1^1 C_3^1 + 2^2 C_1^0 C_3^2 =$$

$$6 + 12 = 18$$

demak, tenglama 18 ta butun yechimga ega

Yechimlarni ketma – ket yozib chiqish orqali ham ularning sonini ko‘rsatish mumkin

(2,0,0)	(-2,0,0)	(1,1,0)	(-1,1,0)	(-1,0,1)	(0,-1,1)
(0,0,2)	(0,-2,0)	(1,0,1)	(1,-1,0)	(1,0,-1)	(0,1,-1)
(0,2,0)	(0,0,-2)	(0,1,1)	(-1,-1,0)	(-1,0,-1)	(0,-1,-1).

Ko‘rilgan (2) tenglamaning simmetrik yechimlari va yechimlarining yig‘indisini topish, geometrik hamda kombinatorik tahlilga asoslanib tadqiq qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. И.И.Ежов, А.В.Скороход, М.И.Ядренко “Элементы комбинаторики”. Москва “Наука” 1977. стр 32.

2. К.А.Рыбникова “Комбинаторный анализ”. Москва “Наука” 1982. стр 15.

3. H.T.To‘rayev, I.Azizov “Matematik mantiq va diskret matematika”. Toshkent “Tafakkur bo‘stoni” 2011. 132-bet.

UCHINCHI SINF ONA TILI KURSIDA OT SO‘Z TURKUMINING O‘RGATILISHIDAGI IZCHILLIK

Norkulova Dilorom Oybekovna
BuxDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271085

Annotatsiya: Ushbu maqolada uchinchi sinf ona tili kursida ot so‘z turkumining o‘tilishidagi izchillik yoritib berildi. Buning uchun 3- sinf ona tili darsligidagi ot so‘z turkumiga oid mavzularga ahamiyat qaratildi.

Kalit so‘zlar: ot so‘z turkumi, ko‘plik shakli, birlik shakli, ot yasovchi qo‘shimchalar

Ma’lumki, ot so‘z turkumi hozirda amaldan chiqarilgan birinchi-ikkinchi sinf ona tili darsligida amaliy jihatdan o‘rgatilishi nazarda tutilgan, ya’ni o‘quvchilar ot so‘z turkumi dastavval atamasiz tarzda, shaxs va narsaning nomini bildiruvchi so‘zlar sifatida o‘rgatiladi. Uchinchi sinfga kelib o‘quvchilarga shaxs va narsaning nomini bildiruvchi so‘zlar ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ekanligi tushuntiriladi.

3- sinf ona tili darsligiga ko‘ra,, ot so‘z turkumi’’ tushunchasini qoida orqali nomlashdan avval darslikdagi ikkita mashq bajariladi. Birinchi mashq tarkibida nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topish so‘ralgan bo‘lsa, ikkinchi mashqda matn tarkibidagi kim? va nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni topish so‘raladi. O‘quvchi kim? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlar bilan nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni farqlaganidan keyin bu ikkala so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘zlar ot so‘z turkumiga mansubligi qoida orqali xulosalanadi. Bu orqali o‘quvchilar avval tushunchaning mohiyatini anglab, keyin tushunchaga oid fikrlarni xulosalash asnosida tushunchaga nom berishni o‘rganadilar.

Darslikdagi keyingi mavzu tarkibida shaxs nomini bildirgan otlar kim? so‘rog‘iga narsa nomini bildirgan otlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishini o‘quvchilarga qoida asosida o‘rgatish maqsadida, qoida avvalida shaxslarni bildiruvchi otlar, kishilarni bildiruvchi otlar, transport vositalari va tabiat hodisalarini bildiruvchi otlarni topishga oid mashq bajartiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi ot so‘z turkumiga oid ma’noviy guruhlarni anglashi, ot so‘z turkumi o‘z tarkibida nimani nomlab kelishiga ko‘ra tarmoqlanishini tushunishidir. Ot so‘z turkumining ichki ma’noviy guruhlari mazmuni ochib berilgach, qoida asosida fikr xulosalanadi:

- Shaxs nomini bildirgan otlar kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Narsalar nomini (hayvonlarni, turli hodisalarni) bildirgan otlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Otlar bildirgan tushunchasi va savollariga oid besh dars davomida mashqlar bajariladi, bilimlar mustahkamlanib borilib, quyidagi kabi mashq bajariladi:

222-mashq nuqtalar o‘rniga har bir qatordagi otlarning umumiy nomini bildiradigan so‘zlarni quyib yozing

Choynak, piyola,stakan---

Choy, qand, sariyog‘-----

Ruchka, qalam,chizgich---

Do‘ppi, palto, ko‘ylak---

Foydalanish uchun so‘zlar: o‘quv qurollari, idishlar, kiyimlar, oziq-ovqatlar

Shundan so‘ng o‘quvchilarga,, otlarda birlik va ko‘plik’’ mavzusi o‘tiladi.

Mavzu davomida dastavval mashq bajariladi. Mashqga ko‘ra tarkibida bir so‘z ikki gap tarkibida birlik va ko‘plik shaklida berilgan bo‘lib, o’quvchilar savol berish orqali bir so‘zning ikki shaklini ma’noviy jihatdan anglashadi.Ayni shu jarayonda o‘quvchilarga otlar birlik va ko‘plikda qo‘llanishi, otning ko‘plik shakli -lar qo‘shimchasi bilan ifodalanishi aytib o‘tiladi. Ko‘plik shaklidagi otni hosil qilish uchun birlik shaklidagi otga –lar qo‘shimchasi qo‘shilishi tushuntiriladi. Shu bilan birga -lar qo’shimchasiga oid orfografik bilimlar berib boriladi. Darslikdagi qoida quyidagicha:

•Otlar birlik shaklida (o‘quvchi, bulbul) va ko‘plik shaklida (o‘quvchilar, bulbullar) qo‘llanadi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so‘rog‘iga, ko‘plikdagi otlar kimlar? yoki nimalar? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

-lar qo‘shimchasi birlikdagi otdan ko‘plikdagi otni hosil qiladi.

•Ot tarkibida kelgan –lar qo‘shimchasi so‘zlashuvda ba’zan –la tarzida aytiladi, ammo doim –lar yoziladi.

Uchinchi sinf o‘quvchilariga birlik shaklida qo‘llanib, ko‘plik ma’nosini anglatuvchi qo‘shin, armiya, xalq kabi so‘zlarga alohida e’tibor qaratib o‘tilmaydi. O‘quvchi savol bergan hollarda esa qisqacha ma’lumot beriladi.

Uchinchi sinf ona tili kursida o‘tiluvchi va o‘quvchilar lug‘atining boyishiga sabab bo‘luvchi yana bir mavzu mavjud bo‘lib, bu,,Ot yasovchi qo‘shimchalar’’ deb nomlanadi. Ot yasovchi qo‘shimchalar mavzusida berilgan boshqa tushunchalar singari bu tushuncha ham mazmun yaxshi anglanishi uchun avval mashqni bajarish, mashqdan anglashilgan fikrlarni qoida orqali xulosalash asosida beriladi.

Uchinchi sinf ona tili kursida ot yasovchi qo’shimchalardan -chi, -kor, - dosh, -loq o‘rgatilib, -chi, -kor, -dosh qo‘shimchalari shaxs ma’nosini, -zor, -loq qo‘shimchalari o‘rin ma’nosini anglatishi tushuntirib o‘tiladi. Mavzu davomida ot yasovchi qo‘shimchalarga oid quyidagi ko‘rinishda mashqlar berib o‘tilgan:

247- mashq. Yozing. Ot yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

1.O‘yinchi, surnaychi,betonchi, kutubxonachi

2.Binokor, bastakor,paxtakor, pillakor

3.Chamanzor, bug‘doyzor,yong‘oqzor

4. O‘tloq, toshloq

Ot mavzusidan berilgan tushunchalarni mustahkamlash maqsadida uch dars davomida o’quvchi bilan birgalikda mashqlar bajariladi, shu bilan uchinchi sinfga mo‘ljallangan ot so‘z turkumiga oid tushunchalar yakunlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, barcha sohada reja asosida ish ko‘rish yaxshi samara bergani singari ona tili kursida ot so‘z turkumini reja asosida, izchillik bilan o‘rgatish o’quvchi mavzuni yaxshi o‘zlashtirishiga, dars to‘g’ri tashkil etilishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fuzailov S.,Xudoyberganova M, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). – T.: “O‘qituvchi”, 2019.

2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.

3. Hamroyev A.R., Po‘lotova Y.A. Ona tili oqitish metodikasi. –B.: “Durdona”, 2021.

4. Hamroyev A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –Buxoro.

5. Hamroyev M. Ona tilidan ma’ruzalar majmuasi. – T., 2007.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRSH - YANGI O‘ZBEKISTON TIMSOLIDA

Yo‘ldasheva Mushtariy
Namangon davlat universitedi Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271095

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy zamini ekanligi haqida tahliliy ish olib borilgan. Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda yosh avlod tarbiyasi muhim ekanligi mavzuda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, pedagogika, ilmiy-tadqiqod metodlari, davolash-profilaktika, Yo‘l xaritasi, Konsepsiya.

Annotation: This article analyzes the fact that the first stage of the system of continuing education in preschool education is the most important social ground in society. The importance of educating the younger generation in building a new Uzbekistan is highlighted.

Keywords: Action Strategy, Pedagogy, Research Methods, Treatment and Prevention, Roadmap, Concept.

Аннотация: В данной статье анализируется тот факт, что первая ступень системы непрерывного образования в дошкольном образовании является важнейшей социальной площадкой в обществе. Подчеркнута важность воспитания подрастающего поколения в строительстве нового Узбекистана.

Ключевые слова: стратегия действий, педагогика, методы исследования, лечение и профилактика, дорожная карта, концепция.

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratiimoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish va uni yanada takomillashtirish vazifalari amalga oshirildi. Bu muammolarni to‘laqonli hal etishda o‘qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarining samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keldi. Bu talablar pedagogika oliy o‘quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashga ham taalluqli bo‘lib, bu ixtisos beradigan fanlarning nazariy jihatdan yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

“Maktabgacha pedagogika” fani bo‘yicha tayyorlangan ushbu darslikda ana shu nazariy-metodologik asoslarga tayanilgan holda asosiy e'tibor - maktabgacha

pedagogikaning umumiy asoslari, uning ilmiy-tadqiqod metodlari, maqsad va vazifalari, maktabgacha ta’lim didaktikasi, O‘zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi, rivojlanishining asosiy bosqichlari, ta’lim sohasi bo‘yicha qabul qilingan huquqiy-me’yoriy qonun hujjatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tamonlama tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlar, shakl va usullari, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari, oila, maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari, turli xil maktabgacha ta'lim muassasalari ishini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish va maktabgacha ta'lim tizimi tomonidan nazorat qilish kabi masalalar tahliliga qaratilgan

Maktabgacha ta’lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy zaminidir. Maktabgacha ta'lim muassasi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o‘rin tutadi. Barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil etiladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta’lim mazmuni maktabgacha ta'limga qo‘yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Davlat maktabgacha ta’lim muassasasining ish tartibi va bolalarning ushbu muassasada bo‘lish vaqti davlat maktabgacha ta’lim muassasasining ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida besh kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi ish tartibi joriy etiladi: 12 soatli; 10,5 soatli; 9 soatli; 4 soatli. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, davlat maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uning alohida guruhlarida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish ushbu muassasa zimmasiga yuklatiladi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish davlat maktabgacha ta'lim muassasasining tibbiyot xodimlari va ushbu muassasaga belgilangan tartibda biriktirilgan hududiy sog‘liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari davlat maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o‘tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun mas'uldirlar. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog‘Iig‘ini mustahkamlashni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan

belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasining tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish hududiy sog‘liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tibbiyot xodimining faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar (alohida xizmat xonasi, mebel va tibbiy jihozlar, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlar) yaratib beriladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish sog‘liqni saqlash tizimidagi malaka oshirish muassasalarida har uch yilda kamida bir marta bepul amalga oshiriladi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq: Quyidagilar, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutgan holda Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi: maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash; maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini

ta’minlash. Hujjat erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga (2019–2024-yil. va 2025–2030-yil.) mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim vazirligi har yili 1-dekabrga qadar keyingi yil uchun “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritadi va ularning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Hujjat bilan rejalashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari belgilangan va ularni bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklangan. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta’minlovchi muhim manba bo‘lgan sifatli maktabgacha ta’limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Noyob Huquqlar bola huquqlari haqidagi Konventsiyani o‘rganish bo‘yicha amaliy qo‘llanma\ UNICEF, NEW-YORK-1993

2. Otavaliyeva O‘. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. T.: O‘qituvchi, 1994.

3. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.

4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. T., 2008.

6. O‘zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi Nizom. T., 2017

KISHISHILARARO MUNOSABATLARNI ANGLATUVCHI URDUCHA VA O‘ZBEKCHA MUSHTARAK MAQOLLAR

Yusupova Mohira
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Janubiy va janubi-sharqiy Osiyo tillari” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271101

магнито-гидростатических). Гравитационные методы обогащения применяют для предварительного обогащения крупнокусковой руды (тяжелые среды и крупнокусковая отсадка), в основной схеме обогащения и в доводочных операциях. Крупность обогащаемого кускового материала находится в пределах 100-0,02 мм. Условие эффективного применения гравитационных методов обогащения – достаточная разница в плотности разделяемых минералов. При обогащении кускового материала в тяжелых средах или отсадкой эта разница должна быть не менее 100-150 кг/м^3, для разделения тонкозернистого материала – в 2-3 раза больше. Кроме плотности, на поведение минеральных зерен оказывают значительное влияние их размер и форма, а для тонкозернистого материала также свойства поверхности.

Обработка мелковкрапленного исходного материала сводится к грохочению и измельчению верхнего продукта грохота до крупности, при которой получается максимальное раскрытие зерен полезных минералов при минимальном их переизмельчении. Практически эта крупность находится в пределах 1,5-2 мм. Практика ряда вольфрамовых фабрик, обрабатывающих мелковкрапленные руды, показывает, что отсадка в цикле измельчения не дает удовлетворительных результатов. Концентраты при этом получаются с низким содержанием вольфрама, при невысоком извлечении в них полезного минерала.

Последующая обработка материала такой крупности может проводиться отсадкой в сочетании с концентрацией на столах. Но при отсадке извлекаются только более или менее крупные зерна полезных минералов. Отвальные хвосты с отсадки на вольфрамовых фабриках получаются редко, и обычно требуется дальнейшая их обработка. Поэтому обогащение с применением только отсадки не дает хороших результатов.

Обработка всего материала концентрацией на столах возможна. При этом могут быть получены концентрат, промпродукт и отвальные хвосты. Но устанавливать малопроизводительные концентрационные столы для обработки крупных классов нерационально. Для крупного материала отсадочные машины являются более эффективными аппаратами, чем концентрационные столы. Поэтому рационально расклассифицировать измельченный материал на ряд классов, для крупных применять отсадку, а для мелких – концентрацию на столах.

Промпродукт отсадки требует перечистки, чтобы выделить из него некоторое количество концентрата целесообразно его отправить на концентрационные столы, обрабатывающие продукт второго или третьего гидравлического классификатора.

Хвосты и шламы от обработки руд гравитационным методом содержат до 20-30% материала крупностью 0,15-0,075 мм, с содержанием вольфрама,

превышающим в 3-4 раза содержание в исходной руде. Этот материал обогащает общие хвосты фабрики и снижает извлечение. Если этот продукт выделить из общих хвостов и подвергнуть дополнительной обработке, то потери на фабрике будут значительно снижены. Для этого в технологическую схему вводят классификацию, чтобы разделить хвосты на пески и шламы. Пески направляют в отвал, а шламы сгущают. Сгущенный продукт подвергают дополнительной обработке.

При разработке технологической схемы обогащения минерального сырья учитывали:

- технологические схемы переработки тонко вкрапленных вольфрамитовых руд отечественных и зарубежных обогатительных фабрик;
- технические характеристики современного применяемого оборудования и его габариты;
- возможность использования одного и того же оборудования для одновременной реализации двух операций, например, разделения минералов по крупности и обезвоживание;

Отобранные пробы первоначально обогащались на отсадочной машине и на концентрационном столе: полученный промпродукт отправили на флотационное обогащение после доизмельчения. В качестве собирателя шеелита применяется олеиновая кислота. Для создания кислой среды добавляем HCl до pH=2.

В качестве пенообразователя использовали реагент Т-92. В результате получен вольфрамовый промпродукт с содержанием 29-30% WO_3.

Первая серия опытов лежалых хвостов Ингичкинской фабрики проводили гравитационным методом. Пульпа обогащалась на винтовом сепараторе. Концентрат отправили на концентрационный стол. Был получен продукт, содержащий 0,56-1,2% WO_3. Содержание WO_3 в исходном продукте 0,06%.

Вторая серия опытов навеской 50 кг обогащали на отсадочной машине с перечисткой. В результате был получен промпродукт содержащий 8-10% WO_3. Следующие 10 опыта проводили комбинированным методом. Полученный промпродукт отправляем на флотацию. Технологическая схема состоит из следующих операций: ситовый анализ, пульпаподготовка, обогащение на отсадочной машине с перечисткой, обогащение на концентрационном столе, основная флотация, контрольная флотация и двукратная перечистка. В результате возможно получение вольфрамового промпродукта содержащего 15-20% WO_3. Ниже приведены схемы обогащения кека НПО АО «Алмалыкский ГМК» и лежалые хвосты Ингичкинской фабрики. (рис.1-2).




Рис.1. Технологическая схема обогащения кека НПО АО

«Алмалыкский ГМК» в замкнутом цикле комбинированным методом




Рис.2. Технологическая схема обогащения лежалых хвостов Ингичкинской фабрики по комбинированной схеме в замкнутом цикле

Полученный вольфрамовый промпродукт подвергался агитации с HCl в течение 15-20 минут. В результате содержание WO_3 повысился на 3-5%.

Результаты экспериментальных данных показывает, что при обогащении кека НПО АО «Алмалыкский ГМК» и лежалых хвостов по рекомендуемой схеме даёт хороший результат. При обогащении кека по этой схеме возможно получение вольфрамового концентрата с содержанием WO_3 -49-50%.

При обогащении лежалых хвостов гравитационным методом на отсадочной машине и на концентрационном столе с двумя перечистками даёт возможность получения вольфрамового промпродукта с содержанием 27-29% WO_3.

Обогащение кека и лежалых хвостов на винтовом сепараторе и на концентрационном столе не даёт ожидаемых результатов. Таким образом предлагаем обогащение кека и лежалых хвостов гравитационным методом на отсадочной машине и на концентрационных столах с двумя перечистками.

По результатам проведенных опытов (табл.1) видно, что выход промпродукта равен 1,69-2%, содержание 29-30% при извлечении WO_3 53,7-62,5%.

Таблица 1

Результаты опробования технологической схемы

Продукт	γ, %	β^{WO_3}, %	$\gamma\ \beta^{WO_3}$	ε^{WO_3}, %
Кондиционный концентрат	1,69	29	49,01	**53,7**
Хвосты отвальные	98,31	0,5	49,75	**46,3**
Исходная руда	**100,00**	**0,176**	**17,600**	**100,000**

Таким образом установлено, что наиболее эффективным способом извлечения WO_3 из кека крупностью -3+0,5 мм является отсадка с перечисткой, концентрация на столе с перечисткой из классов крупности -0,5+0,1 и -0,1+0.

Список использованной литературы:

1. Mutalova M.A., Khasanov A.A., Salijanova G.K., Ibragimov I.S., Melnikova T.E. “Use of local reagent in breeding polymetallic-copper-lead-zink ore”/ “Journal of optoelectronics laser” Volume 41. Issue 5, 2022, Pp. 402-409. ISSN: 1005-0086. DOI: 10050086.2022.05.51.

http://www.gdzjg.org/index.php/JOL/article/view/367

2. Odiljon G. Khayitov; Gulnarakhon K. Salizhanova; Marhamat A. Mutalova; Sevara I. Aminzhanova; Malika Y. Mishareva, Oil and Gas Potential in the Territory

of the South-Eastern Part of the Bukhara-Khiva Region, GEINTEG GESTEO Inovacao e Tecnologias. ISSN: 2237-0722, Vol. 11 No. 4 (2021), Received: 14.07.2021 – Accepted: 13.08.2021

3. Mutalova M.A., Khasanov A.A., Ibragimov I.S., Melnikova T.E. «Development of Technology for Producing Tungsten Product with WO_3 Content Not Lower than 40% from Technogenic Waste SIE «Almalyk MMC»»/International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 12, December 2019.Pp. 12329-12333.

4. Alimov Sh.M., Melnikova T.E. "Research of the material composition of tallings storage of Copper-processing plant JSC "Almalyk Mining and Metallurgical combine""/ International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 7, Issue 12, December 2020. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 7, Issue 12, December 2020. Pp. 16006-16010.

5. А.А. Абрамов. «Переработка, обогащение и комплексное использование твердых полезных ископаемых» М. Изд. МГУ 2004 г. II том.

6. Справочник по обогащению руд. Том – 2.,3. – М. Недра, 1982г.

7. Абрамов А.А. Технология обогащения руд цветных металлов. М.Недра, 2004г.

8. В.И. Классен. Обогащение руд. М.1979г.

DIDAKTIK O‘YINLAR TURLARI VA MAQSADLARI

Mirzaulukova Muyassar Ubaydullayevna
Toshkent Farmatsevtika Instituti akademik litseyi
biologiya o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271159

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari yoritib berilgan bo‘lib, bir nechta interfaol metodlarning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol, metod, pedagog, xarita, kichik guruhlar, “klaster”, “B\B\B”.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim – tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlari bo‘yicha ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi o‘yinlar alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish hulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Didaktik o‘yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta’lim –tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Turli o‘quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o‘yinlar nazariyasiga, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konsturuktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlariga ajratiladi. Bularning orasida ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi

bilan alohida o‘ringa ega. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolok olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va yanada oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo‘ldi.

Natijada, oldingi asrning 60-yillari boshidan AQSH-da so‘ngra boshqa g‘arb mamlakatlarida ishchanlik o‘yinlari qo‘llanila boshlandi. Ishchanlik o‘yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejamli ta’lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar.

Didaktik o‘yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noananaviy dars shakillari

Ishchanlik o‘yini darsi –dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Rolli o‘yin darsi - dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirlgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘qituvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirgan o‘quvchilarning o‘zaro muloqot asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

Formulalar darsi – o‘quvchilarning formulalarni puxta o‘zlashtirishlari bo‘yicha turli o‘yinlar shaklidagi mashqlar o‘tkazish darsi.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari tashkil qilish darsi.

“Sud darsi” - o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi - dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

“Tergovni bilimdonlar olib boradi” darsi - dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

Integral (integratsiyalashgan) darsi - bir necha fanlarga oid integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini ortirib, ta’lim jarayonidagi faolliklarini ta’minlaydi.

Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ulardan olam tuzilishining ularning ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Mo‘jizalar maydoni” darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakillantiradi.

Didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart-sharoitlari

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari har bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi.

Didaktik o‘yin turlarini tanlash me’zonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha o‘g‘il-bolalar, qiz-bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar katta yoshdagilar uchun o‘yinlar;

- ishtirokchilar soni bo‘yicha –yakka, juftlikda kichik guruh, sinf jamoasi, raqobotdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o‘yinlar ;

- o‘yin jarayoni bo‘yicha – fikrlash, o‘ylash topog‘onlik, harakatlar musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan yo‘llar;

- vaqt me’yori bo‘yicha dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘olib yoki g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o‘yinlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.O.Tolipova,A.T.G‘ofurov “Biologiya o‘qitish metodikasi”. Toshkent. 2004.
2. B.Sobirov. Interfaol metodlar. Farg‘ona. 2020.

УСМОН АЗИМ ИЖОДИДА АЛЛОҲГА МУРОЖААТЛАР

Қурбонова Мафтуна
ТерДУ магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271176

Аннотация: Ушбу мақолада Усмон Азим ижодида Аллоҳга муножот қилишда қўлланилган мурожаат шакллари ва воситалари ҳақида фикр юритилган. Муножот сўзининг тарифи берилиб, қандай ономасиологик бирликлардан фойдаланиш мумкинлиги мисоллар асосида кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Муножот, мурожаат, Аллоҳ, Раб, Парвардигор, Тангри, Худо.

Тилимизда мулоқот жараёнининг асосини ташкил этувчи мурожаат воситалари мавжудки, улар мазмунан ва услубан мулоқот мазмунига мос тарзда танланади. Булар орасида Аллоҳга мурожаат шакли ҳам мавжуд бўлиб муножот деб номланади. Муножот арабча “нажа”– (نجاء)نَجَوфеълидан ясалган бўлиб, пинҳона, сирли, нола, ҳасрат деган маъноларни ифодалайди. Бошқача айтганда, нотиқ (мурожаат қилувчи) ўз армони, мақсаду муроди, аҳволу руҳиятини ёлғиз Аллоҳга изҳор этиб, тавба-тазарру қилиб, сўнгра ундан (Аллоҳдан) гуноҳларини авф этишини, паноҳ, нажот ва ҳимоя қилишни сўрайди. Бу турдаги нутқнинг шаклланишида Аллоҳнинг 99 исми (“Исми Аъзам”) асос бўлиб хизмат қилган. Масалан, Аллоҳ (Аллоҳим, ё Аллоҳ,эй Аллоҳ), Илоҳ (ё Илоҳ, Илоҳим, Илоҳо), Худо (Худоё, эй Худо, ё Худо, Худойим), Тангри (Тангрим, эй Тангрим), Парвардигор (эй Парвардигор, ё Парвардигор, Парвардигорим), Рабби (Раббим, ё Раб, ё Раббим), Аҳадо, Самадо, эй Биру Бор шулар жумласидандир.

Бугунги кунда адабиётимизда ўз ўрнига эга бўлган шоирлардан бири – Усмон Азим ижодини кузатар эканмиз, ижодкорнинг барча мавзуда индивидуал фикри, дунёқараши бор эканлигини кўрамиз. Унинг фақат ўзигагина хос бўлган бўёқлар борки, ундан англашилган маъно фақат Усмон Азимга тегишлилик касб этади.

Табиатда мавжуд жамийки жонзотларни яратгувчиси Аллохга мурожаат – муножот адиб ижодида ҳам алоҳида ўрин тутадиган мавзулардан биридир. Чунки руҳият ва ички кечинмалар ҳақида ёзилган шеърлар инсон қалбининг тубидаги орзу, истак, нажот, умид қилиш Аллоҳга қаратилган бўлади. Усмон Азим ижодида эса ички кечинмаларнинг руҳиятга боғлиқ ҳолда ифода этиш асосий планда туради.

Шоирнинг бир шеърида шундай мисраларни учратишимиз мумкин:

Бу тунинг жуда дахшат –
ухласа мангу қоладигандай бу чоғ.
... Берган мададингга, худойим, раҳмат-
Ҳеч бўлмаса итларинг уйғоқ.
(“Юрак” 210-бет)

Ушбу шеърни таҳлил қилар эканмиз бунда Аллоҳга мурожаат қилиш вазиятида илтимос маъноси ҳам намоён бўлади. Яъни “мавжуд вазиятни ёлғиз ҳал қилувчиси сенсан, барчасига ўзинг ҳакамлик қилгин” деган илинж мавжуд. –им эгалик, тегишлиликни кўрсатувчи қўшимчанинг ишлатилиши ҳам худони ўзига яқин олиш, унга ёлвориш каби мазмунни ҳам ифодалайди. Бунда биринчи кўриниш, Аллохга “худо” сўзи воситасида мурожаат килинмоқда. Адибнинг яна бошқа бир шеърида:

Ё, Оллоҳ,
Яқинми охират рўзи?
Митти юраги ёрилгудай бу дам:
жисми чарчадими-
нима бўлаяпти ўзи?
тупроққа қайтгиси келяптими, эгам**?**
(“Юрак” 211-бет)

Мазкур шеърда эса “оллох”, “эгам” сўзлари воситасида Оллоҳга мурожаат этилмоқда. Мазмунга эътибор қаратадиган бўлсак, сўраш, ҳайрон қолиш оттенклари сезилиб турибди.

Шуни айтиб ўтиш керакки, Усмон Азим ижодида образлар масаласига кучли эътибор қаратилади. Мисол учун, жониворларни инсон ўрнида тавсифлаш, йил фаслларини инсоннинг умрига менгзаш, кун ва тунни яхши ва ёмон инсонларга қиёслаш шулар жумласидандир.

Шоир ижодидан ўрин олган қуйидаги шеърда Оллоҳга мурожаат қилиш учун ишлатиладиган “тангри” сўзи воситасидан фойдаланилган:

Тангрим! Баҳорингнинг ҳусни зиёда,
Термулсам, кўкарар танимда ғайрат!
Оқибат не қолар мендан дунёда?-
Сенинг ижодингдан нурланган ҳайрат...
(“ Юрак” 84-бет)

Яна бир мисол:

О, сен ҳақда ўйларим нафас
каби ҳар он жондир жонимга.
Сенсиз қолган бу жаҳонимда
қанотсизлик билан тушим баҳс...
Парвардигор, судралиб эмас,

учиб боргим келар ёнингга.

(“ Юрак” 185-бет)

Тилимизда яна шундай сўзлар мавжудки, улар ҳам Оллоҳга мурожаат қилишда қўлланилади. Бу сўзлар кундалик сўзлашув тилимизда кўпам ишлатилмаслиги мумкин, аммо учрайди. Мумтоз ва бадиий адабиётимизда эса кўплаб учратишимиз мумкин. Булар сирасига “раб” сўзини ҳам мисол қилиб киритишимиз мумкин. Ушбу сўз воситасида Оллоҳга мурожаат қилиш ҳам Усмон Азим ижодида учрайди. Қуйидаги шеър бунга мисолдир:

Ҳаловат қолмади жонимда... Ё раб!
Қайси чексизликнинг бовури дудли,
Қайси йўқсизликнинг кўзига қараб,
Қақшади қайси бир борлиқ ҳудуди?

(“ Юрак” 175-бет)

Шулар қаторида яратган эгам, эгам, яратган сўзлари ҳам оллоҳга мурожаат қилиш шакли саналади. Бу сўзлар ҳам ранг-баранг образлар яратиш воситаси сифатида шоир ижодида маҳорат билан қўлланган.

Бепоёнлик – аксуллик –
Бошланди манфий олам...
Дил уйғонди. Афсуни
Бунча оромли, Эгам?
Тангрим, меҳрингни ҳадди –
Шафоатинг тенгсиздир:
Сени танимоқ дарди
Бу дунёнгдан чексиздир.

(“ Юрак” 163-бет)

Биз юқорида фақатгина бир шоир ижоди мисолида тилимиздаги мурожаат шаклларини таҳлил қилдик. Аслида, тилимизда мурожат воситалари анчайин кўп ва хилма-хилдир. Бу бирликларини ўрганиш, махсус тадқиқотлар олиб бориш тилимизнинг ривожи учун хизмат қилиши, шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Усмон Азим. Юрак. Шеърлар. – Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2009.

2. Сайфуллаева Р.Р, Менглиев Б.Р, Боқиева Г.Х, Қурбонова М. М, Юнусова З. Қ, Абузалова М. Қ, Хозирги узбек адабий тили – Т., Фан ва технология, 2009.

3. Омонтурдиев А. Тилда мурожаат воситалар // Мулоқот. –2003. –№1.

4. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалма.-Т., Фан. 1968.

НАЗВАНИЕ ГОЛОВНЫХ УБОРОВ ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Булекбаева Екатерина Александровна
студент, Термезский государственный университет
Республика Узбекистан, г.Термез
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271184

Аннотация: Данная статься посвящена анализу русских и узбекских пословиц и поговорок, исследование которых может сопоставить их друг с другом, определить схожесть и отличие в рассматриваемых языках. Пословицы и поговорки отражают образ жизни, являются ярким и выразительным иллюстративным источником. Использование пословиц и поговорок является целесообразным в ходе формирования лексических, грамматических и фонетических навыков.

Ключевые слова: пословица, поговорка, культурные ценности, сравнительный анализ.

Abstract: This article is devoted to the analysis of Russian and Uzbek proverbs and sayings, the study of which can compare them with each other, determine the similarities and differences in the languages under consideration. Proverbs and sayings reflect the way of life, are a bright and expressive illustrative source. The use of proverbs and sayings is appropriate in the course of the formation of lexical, grammatical and phonetic skills.

Key words: proverb, saying, cultural values, comparative analysis.

Пословицы и поговорки создавались многими поколениями людей и возникли в глубокой древности. И с той поры они живут вместе с человеком на протяжении всей его жизни. Знание пословиц и поговорок обогащает словарный запас, помогает усвоить особенности языках, улучшает память и мышление, развивает логику. Поговорки и пословицы содержат совет и поучение и помогают нам найти решение в той или иной ситуации.

Из пословиц и поговорок разных языков мы можем видеть, что разные народы по-своему трактовали значение крылатых выражений, но во многих этих значениях мы можем видеть как схожесть, так и отличие.

Пословицы – это краткие народные изречения с назидательным смыслом; народные афоризмы. Они несут в себе огромную информацию о жизни и культуре наших предков. Также поговорка-образное выражение, не составляющее, в отличии от пословицы законченного высказывания и не являющееся афоризмом [1, с.1376].

Пословицы и поговорки узбекского языка – это зеркало своеобразной, неповторимой многогранной культуры и быта народов Востока.

В 2018 году Фонд Ислама Каримова издал книгу «Қайроқи сўзлар» («Острые словечки»). В издании собраны уникальные пословицы, поговорки, сказания узбекского фольклора как практически вышедшие из обихода, так и часто употребляемые в повседневной жизни. «Острые словечки» передали библиотекам, учебным заведениям, творческим организациям Узбекистана, ее также можно приобрести в столичных книжных магазинах. Центром народной дипломатии ШОС в Ташкенте, в рамках мероприятий, приуроченных к 20-летию Шанхайской организации, были изданы сборники «Бесчисленные пословицы восьми народов» и «Восемьдесят восемь сказок о восьми народах». Подготовленные под руководством кандидата филологических наук Зухриддина Исомутдинова, сборники включают в себя изречения, легенды, мудрые мысли индийского казахского. китайского, киргизского, пакистанского, русского. таджикского и узбекского народов. «Бесчисленные пословицы восьми народов» — это попытка собрать букет из мудростей половины человечества, отмечают издатели.

Кладезь мудрых мыслей – именно так можно назвать пословицы и поговорки узбекского народа. Конечно, употребляют их не все, но без этой неотъемлемой части фольклора, невозможно себе представить узбекский язык. Вникая в смысл каждой, понимаешь – лучше и не скажешь, пословицы бьют точно в цель, высмеивая поступки человека, раскрывая его сущность. Они, словно нарекания старших, которым важно следовать всегда.

«Бош ёрилса, дўппи остида», что означает в переводе на русский язык «если расколется голова, то под тюбетейкой», т.е. «не выносить сор из избы».

«Бош омон бўлса, дўппи топилади», что означает в переводе «была бы цела голова, а тюбетейка найдется». «Бош» выражает значение голова и ум, а тюбетейка ближе к узбекскому народу как национальный головной убор. Значит умный не останется без головного убора, т.е. в широком смысле без средств существования. Узбекская тюбетейка – это национальный головной убор узбеков. Тюбетейка украшает всех – и седые головы стариков, и макушки новорожденных. Народная пословица говорит: «Тюбетейка джигиту всегда к лицу». Это головной убор считается одним из национальных видов прикладного искусства, неотъемлемо частью народного костюма. Узбекские тюбетейки заслуженно пользуются спросом во всём мире. Сотканные умелыми руками мастеров, они украшают экспозиции музеев истории, культуры и прикладного искусства.

В русской пословице «Была бы цела голова, а шапка найдется» смысл совершенно прост. Главное в жизни, чтобы у человека была голова на месте,

чтобы он думал, что делает. Если человек будет умным и хорошим, то для него всегда найдётся место в этой жизни. Всегда будет работа, если человек будет жить с умом, ведь «Где ум, там и толк». Если походить ко всему обдуманно, то и всегда найдутся друзья. Будьте всегда внимательны и осмотрительны, тогда и в жизни всегда все будет замечательно и хорошо.

«Дуст бошқа бокар, душман оёққа», что означает «друг судит по уму, а недруг по обуви». В русском языке имеется аналогичная пословица «Встречают по одёжке, провожают по уму». Так говорили нам «умудренные» жизненным опытом взрослые, вкладывая при этом значение, что ум важнее одёжки, неважно, как ты одет, главное – что в твоих мозгах! Дать субъективную оценку собеседнику можно при общении с ним. По показателям его речи раскрываются особенности и основные качества человека. Отсюда можно сделать вывод, что речь представляет собой визитную карточку человека. Ведь именно речь человека в процессе общения является средством выражения его умственных показателей [2].

Среди фольклорных жанров пословицы считаются самым активным и популярным жанром. Не существует народа, не имеющего своих пословиц. В данном отношении пословицы считаются международным жанром. Сравнительное изучение пословиц, распространенных в творчестве различных народов, даёт возможность определить генетические основы, принципы формирования и распространения данного жанра. Помимо этого, «Сравнительно-историческое изучение выводит фольклористику из замкнутого и узкого круга местных проблем в область более широких общих закономерностей и аналогий исторического и литературного развития и культурных взаимодействий между народами, обогащая и углубляя, в конечном счете, и самое изучение национально-исторической специфики народного творчества» [3].

В быту происходят разнообразные события. Таким понятиям, как хорошее и плохое, правда и кривда, богатство и бедность, грубость и нежность, деловитость и лень, все народы относились одинаково. Поэтому «Каждому народу наряду со своеобразными чертами, отличающими его от других народов, присущи и общечеловеческие качества, такие как мораль, достоинство, долг и обязательства» [5].

Данные общечеловеческие мысли и чувства создали почву для появления адекватных пословиц, которые имеют краткую форму и глубокий содержательный смысл. У каждого народа ценятся такие категории, как подход с умом к делу, ответственность, конкретность. В этой связи у узбеков часто используется пословица «Етти ўлчаб бир кес» [5, с.152], а русская пословица звучит «Сто раз отмерь, один отрежь» [6, с.403].

Мудрость и дух народа проявляются в пословицах и поговорках, а их знание способствует не только более глубокому знанию языка, но и пониманию образа мыслей и характера народа. Сравнение пословиц и поговорок разных народов показывает, как много общего имеют эти народы, что, в свою очередь, способствует их лучшему взаимопониманию и сближению. В пословицах и поговорках отражен богатый исторический опыт народа, представления, связанные с трудовой деятельностью, бытом и культурой людей. Правильное и уместное использование пословиц и поговорок придает речи неповторимое своеобразие и особую выразительность.

Использование пословиц и поговорок является целесообразным для иллюстрации грамматических явлений и закреплений их в речи. Благодаря своей лексико-грамматической насыщенности, пословицы и поговорки могут использоваться для обогащения словарного запаса. Также, в качестве стимула, они могут использоваться для развития речи. Изучение пословиц и поговорок способствует обогащению словарного запаса, позволяет развить память, а также приобщает к народной мудрости

Менялась жизнь, появлялись новые поговорки, забывались старые, но оставалось то ценное, что имело значение и для последующих эпох. Широкому распространению и долголетию пословиц способствовало то, что часть их, теряя свой прямой смысл, приобретала смысл переносный.

Список литературы:

1. Ожегов С.Г. Толковый словарь русского языка.-М.,2012.
2. Габдулхаков Ф.А. Учебное пособие для студентов филологических факультетов вузов. Наманганский государственный университет.,2022.
3. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение.-Л. «Наука»,1979.
4. Саломов Г. Тил ва таржима.-Т.: «Фан»,1966.
5. Ўзбек халқ мақоллари.Том I.- Т.: «Фан»,1987-1988.
6. Мокиенко В.М. Антипословицы русского народа.-Нева, 2005.

СЕЛ ТОШҚИНЛАРИНИ КУЗАТИЛИШ ҲАВФИНИ ПРОГНОЗЛАШДА ТАБИИЙ– ИҚЛИМИЙ ОМИЛЛАРНИНГ БАҲОЛАШ

Туляганов А.Х.
Тошкент давлат транспорт университети **т.ф.н.**доценти
Махкамов Б.Р.
мусақил тадқиқотчи, Тошкент давлат транспорт университети
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271202

Кириш: Сел тошқинлари мураккаб гидрологик жараён ҳисобланиб [3,8,11], уни кузатилиши (шаклланиши) кўп омиллий табиат ва антропоген ҳодисалар, яний булар иқлимий–ландшафтли, геология–геоморфологик омилларни бирлаштирувчи ва инсонларни ишлаб чиқаришдаги фаолиятига боғлиқ таьсирлар натижасидир [7,13]. Биринчи гуруҳга иқлим билан боғлиқ бўлган омиллар: жала ёмғирлар, ҳавонинг ҳарорати, ҳавонинг намлиги, музликлар, қор қатламларини жадал эришидан ташкил топган бўлиб ва шу жумладан тўғридан–тўғри қуёшнинг фаоллигини ўзгариши билан корреляция ҳосил қилади [6,7,12]. Ушбу табиий–иқлимий омиллар сел тошқинларини шиклланиши, уларни прогнозлаш бўйича тадқийқот ишлари турли муҳандислик ишларида селлардан ҳимояланиш масалаларини ечишда амалий аҳамиятга эга эканлиги билан ажралиб туради.

Сўнги йилларда Ўзбекистонда тоғолди худудларни ўзлаштирилиши ва траспорт тизимини ривожланиши билан боғлиқ муҳандислик масаллар, шу билан бирга ушбу худдудларда сел тошқинларини кузатилишини ортиши сел тошқинларини кузатилишида (1–расм) ва прогнозлашда табиий– иқлим омилларнинг таҳлили долзарб масалалар туркумига киради [4].



1–расм.Фарғона вилояти тоғолди Намангансойда 2022 йил май ойида кузатилган сел тошқинини кўриниши

Ишнинг мақсади ва вазифаси. Сел тошқинларини кузатилиши (шаклланишида) ва прогнозлашдаги табиий–иқлимий омилларни таьсирини ўрганиш (баҳолаш) ишнинг мақсади этиб белгиланди. Ушбу изланишларда табиий–иқлимий омилларни Ўзбекистон тоғолди сел ҳазаларида селларни шакилланишидаги умумий қонуниятларини ўргатиш ва уларни прогнозлашда

қўллаш бўйича умумий хулосалар ишлаб чиқиш асосий вазифа деб қабул қилинди.

Асосий қисм (фикр–мулоҳазалар ва натижалар). Марказий Осиёда, хусусан Ўзбекистонда сел тошқинлари бўйича биринчи маълумот Солих ибн Муборак ал Бухорийга тегишли. Муаллиф томонидан 1380–1389 йиллар оралиғида Кешда (ҳозирги Шаҳрисабз) кучли ёмғирлар сабабли кузатилган сел тошқинлари оқибатларининг баёнини келтирилганлиги маълум [9]. Бундай маълумотлар турли манбаларда хабар кўринишида этганлигини қайд этар эканмиз [1,2,5], сел тошқинларини кузатилишини тизимли кузатиш, сел ҳавзаларини ўрганиш ва сел тошқинларидан ҳимояланиш тадбирларини ишлаб чиқиш 1924-1927 йилларда бошланганлигини ва бу ишлар Ўзбекистонда ташкил этилган Фарғона мелиоратив партияси фаолияти билан боғлиқ бўлганлиги кўрсатиб ўтамиз.

Мазкур мақоладаги изланишларда Ўзбекистон бўйича сел тошқинларининг таҳлили асосан 1924 йидан 2012 йиллар оралиғида олинган ва етарли даражада тўлиқ ва ишончли деб қабул қиламиз. Шу билан бирга айрим дарё, ҳамда сел ҳавзаларини аҳоли яшайдиган пунктлардан узоқлиги, ҳавзаларда халқ хўжалиги фойдалниш даражасига кўра, ушбу маълумотлар [14] тўлиқ бўлмаслигини эслатиб ўтамиз Эслатмани тасдиқлаш мақсадида, а Паркентсойнинг энг йирик чап ирмоғи ҳисобланган Заркент сойдаги 2000–2015 йиллар давомида кузатилган сел тошқинлари бўйича маълумотлар келтирамиз (1–жадвал). Маълумотларга кўра, Заркент сойда ҳар йили сел ҳодисаси кузатилиши, уларни айрим йиллар кучли бўлишига қарамай улар бўйича расмий нашрларда қайд этилмаганлигини гувоҳи бўламиз.

1–жадвал

Паркент сой ҳавзасидаги Паркентсой чап ирмоғи Заркентсой бўйича сел тошқинлари бўйича маълумотлар


т/р	Йил ва сана	Оқимнинг тафсифи	Оқимни таъсири
1	12.04.2000.	Кучсиз сел оқими	
2	08.05.2001.	Кучсиз сел оқими	
3	10.05.2002.	Кичик сел оқими	Қирғоқлар ювилган
4	20.10.2003.	Кичик сел оқими	Кўприкларнинг қирғоқлари ювилган
5	17.04.2004.	**Кучли сел оқими**	Қувурларни ювиш кузатилган
6	25.03.2005.	Кучсиз сел оқими	
7	17.04.2006.	Кучсиз сел оқими	
8	20.05.2007.	Кучсиз сел оқими	

9	14.05.2008.	Кучсиз сел оқими	
10	16.10.2009.	**Кучли сел оқими**	Қувурларни ювилиши узатилган
11	20.10.2010.	Кучсиз сел оқими	
12	18.04.2011.	Кучсиз сел оқими	
13	11.05.2012.	Кучсиз сел оқими	
14	19.04.2013.	Кучли сел оқими	
15	05.05.2014.	Кучсиз сел оқими	
16	15.05.2015.	**Кучли сел оқими**	Инсонлар талофати кузатилган


Узгидромет маркази маьлумотларга кўра [14], Ўзбекистонда 709 дан ортиқ сел тошқинлари кузатиладиган ҳавзалар мавжуд бўлиб, уларнинг катта қисми тоғолди худудларда жойлашган. Умумий 1875 йилдан 2005 йил қадар қайд этилган сел тошқинларининг сони 2846 бўлиб, ўртача бир йилда 22 та сел оқимлари кузатилганинг кўрсатиб ўтиш мумкин. Н.Агальцевой (Узгидромет маркази) материаллари асосида биз қабул қилган “базовой” йилларда, яъни 87 йил даврда селларнинг умумий сони 3016 тани ташкил этган ва ҳар йили кузатилаётган селларнинг ўртача сони 36 тага етган. Бу қиймат ҳар 2,5 йилда қайтарилиши кузатилган.

Йиллар таркибида энг кўп сел тошқинлари: 167 та 1930 йил, 161 та 1931 йил, 145 та 1963 йил, 110 та 1987 йил, 120 та 1993 йил ва 133 та 2012 йил қайд этилган. Айрим йилларда бир вақтни ўзида 20га яқин ҳавзаларда сел тошқинлар кузатилиши ва бу қиймат Ўзбекистон ҳудудида жойлашган барча ҳафли сел ҳавзаларининг 5% яқинини қамрайди. Мисол тарийқасида 2–расмда келтирилган худуд бўйича турли минтақалардаги ҳавзаларда кузатилган сел тошқинларини йиллар бўйича солиштиришлар таҳлили юқоридаги фикримизга мисол бўлаолади.


а)



в)



г)




2–расм. Ўзбекистоннинг турли минтақаларида жойлашган сел ҳавзаларидаги кузатилган сел тошқинларининг солиштириш чизмаси

а) Паркентсой; в) Санзар; г) Чадаксой

Сел тошқинларининг кузатилиш ҳудудимизда асосан апрель–июнь ойларига тўғри келиб, энг ҳафли май ойи ҳисобланади. Ушбу келтирилган маьлумотлар таҳллили асосан ҳосил бўлган сел тошқинлари антропоген характерга эга омиллар қаторида, катта қисми табиий–иқлимий омиллар таьсирида эканлигини кўрсади [10].


Манбаларда [5,14] таъкидланишича, Ўзбекистоннинг тоғолди худудларидаги кичик дарё ва сойларда селларнинг шакилланишида иқлимий омиллар таркибига кирувчи жала ёмғирлар ва уларнинг жаддаллиги бирламчи ҳисобланади. Ушбу иқлимий омилни асосий деб қабул қилсак, ўз вақтида иқлимий кўрсаткичлар табиатда Қуёшнинг фаоллиги билан ўзаро боғланишга эга эканлиги ҳисобига [7], сел тошқинларини кузатилиши ҳам қуёш фаоллигига боғлиқ бўлишини таҳмин қилинди (бундай таҳлил 1965 йил Т.М. Мустафакулов томонидан Ангрен сув ҳавзаси бўйича амалга оширилган [6]). Шунга кўра, табиий омил ҳисобланган Қуёш фаоллигининг кўрсаткичи билан (Вольф сони билан белгиланади) Ўзбекистонда қайд этилган сел тошқинларини (кузатилиши) солиштирилди (3–расм). Кутилганидек, икки кўрсаткич орасида боғлиқлик мавжуд эканлигини, бунда қуёш фаоллигини ўсиши билан сел тошқинларини кузатилиш сонини камайиши ва аксинча, қуёш фаоллигини камайиши сел тошқинларини ошишига олиб келишлиги қайд этилди.



3–расм. Ўзбекистпн худуди бўйича 1924–2012 йиллардаги қуёшнинг фаоллиги билан кузатилган сел тошқинларининг солиштирилган чизмаси

Ушбу боғланишни баҳолаш мақсадида, йиллик кузатилган сел тошқинлар сонини қуёш фаоллиги (Вольф сони) билан боғланиши таҳлил қилинди (4а –расм). Бундай боғланиш жуда кичик корряляцияга эга шу билан бирга, Вольф сонини ошиши сел тошқинларини камайишини умумий ҳолатини кўрсатди. Шунга кўра, 4а–расмнинг юқори эгрилиги бўйича жойлашган сел тошқинларининг максимал сони билан Вольф сонини боғланиши (4б–расм) аҳамиятли корреляция ҳосил қилганлигини кўришимиз мумкин (r=0,54). Келтирилган боғланишни амалиёт учун яна бир аҳамиятли тарафи шундаки, худудда кузатилган кўп сонли сел тошқинлар Вольф сонини нормадан кичик ва нормага яқин (Вольф сонинг ўртача кўп йиллик қиймати $W_{ўрта}$ = 78,9 тенг) қийматларда кузатилганлиги билан тавсифланади, бу эса қуёш фаоллиги нормадан паст йиллар сел тошқинларини кузатилишини ва унинг эҳтимолини ошишини кўрсатади.


а) б)



4–расм. Бир йилда кузатилган селлар сони билан (а) ва йил бўйича энг кўп (максимал)селлар сонининг Вольф сонин билан боғланиш (б) чизмаси

Кейинги ўринда, сел тошқинларини шаклланида қуёш фаоллиги билан бирга иқлимий омиллар: ёмғирларнинг жорий ва ўртача қиймати, сел ҳавзасининг намлик даражасини таьсири тадқиқ қилинда.

Селларни ҳосил бўлишида ёғинларнинг бир сутка ёки бир неча сутка кетма–кет такрорланиши (ёғиши) ва ҳавза майдонинг намланиши билан баҳоланади. Бироқ, бу таьсир адабиётларда турлича, жумладан С.М.Флейшман [11] селлар узоқ давом этган қурғоқчиликдан сўнг ёғган жадал ёғинлар натижасида ҳосил бўлади деган фикрни билдирсалар, В.А. Кудышкин [5] ва бошқалар бунинг аксини айтадилар ва дастлабки ҳавзани намланиши селларни ҳосил бўлишини эҳтимолини оширади деб тушунтирдилар. Ушбу ҳолатни ёритишда, Фарғона водийсидаги Бешбўз адиридаги ўлчашлар натижасида А.Х.Туляганов [10] томонидан олинган маълумотларни келтирамиз (5– расм). Расмдан, сел кузатилган кундаги сел ҳосил қилган ёмир миқдори билан селдан аввал икки кун ичида ёғган ёғинларнинг йиғиндиси (ҳавзанинг намлигини белгиловчи омил) орасидаги боғланиши борлигини, ва бунда сел ҳосил бўлишидан аввал ҳавзадаги ёғган ёмғирлар ҳисобига кузатилган намлик сел келиш эҳтимолини оширишини шу билан бирга, қуруқ ҳавзаларда намсизлик даврида сел оқимлари кузатилишини кўрсатади.



5-расм. Сел ҳосил этган ёғин миқдори (X мм) билан сел ўтишидан аввал, икки кун ичида кузатилган ёғинларнинг йиғин-дилари орасидаги ($X\text{-}_2$) боғланиш чизмаси

Расмга кўра, сел кузатилиши-дан аввал ҳавзага ёғган ёғин миқдори 4 мм атрофида бўлганда, кичик 10–12 мм қийматдаги ёғин сел оқимини шакллантиришини ва ҳавзадаги намлик кўпайган сари тошқиннинг кузатилиш эҳтимоли ошишини, ҳавзаларнинг қуруқ даврида кузатиладиган селлар катта қийматдаги ёғинларда (25–30 мм) ҳосил қилишини қайд этиш мумкин.

Шундай қилиб, келтирилган натижага асосланиб, селларни кузатилиш ҳавфини баҳолашда, ҳавзанинг намлик даражасини белгиловчи сел тошқинлари кузатилишидан аввалиги ҳавзага ёғган (декабрь–февраль қийматларини

йиғиндиси) қиймати асос этиб олинди ва шу билан биргашда қуёшнинг фаоллиги, ёмғирларнинг қиймати, ҳавзанинг намлик даражаси каби иқлимий қийматлар таҳлил қилинди (1–жадвал)

1–жадвал

Қуёшнинг фаоллиги, ҳавзанинг намлик қийматларининг таьсирини таҳлил қилишдаги, Ўзбекистон худудидаги алоҳида сел ҳавзалари бўйича қабул қилинган материаллар ва уларнинг натижалари

т\р	Гидрологик район, дарё ёки сой	Метео-станция, баландлик	Қишки ёғинлар йиғиндиси, мм (XII -II) / йиллик дан % ҳисобида	Кўр–сат–кич–лар	Ойлар				
					IV	V	VI	VII	VIII
1.	Базовой давр 1898-1999 гг.								
	Чирчиқ-Оҳангорон, Паркентсой	Чорвоқ, (877 м)	255мм / 32,3 %	W X,мм n, %	73,8 , 105 48,3	75,8 ,56 35,5	78,1 , 21 6,4	79,0 8 3,2	80, 0 7 6,4
2.	Базавой давр 1881-1972 гг.								
	Фарғона тизмасининг жанубий–ғарбий ёнбағри, Кугарт,Тентак-сай, Майлису дарёлари	Джерге-тал (1080 м)	165 мм / 24,4 %	W X,мм n, %	73,4 104 32,2	74,9 , 83 33,3	76,4 , 47 12,6	78,3 ,24 6,9	77,6 11 5,7
3.	Базовой давр 1881-1995 йй.								
	Шимолий Фарғона, Гавасой	Оқ Терак-гава (1750 м)	222 мм / 22,8 %	W X,мм n, %	75,8 126 15,9	76,1 120 45,1	78, 2 82 28, 0	79,8 48 7,3	79,4 31 3,6
4.	Базовой давр 1881-1995 йй.								
	Зарафшон ҳавзаси, Санзар дарёси	Жиззах (378 м)	134мм / 37,0 %	W X,мм n, %	75,8 60 45,4	76,1 33 33,4	78,2 ,7 21,2	79,8 3 0	79,4 , 0 0

5.	Базовой давр 1928-1991 йй.								
	Сурхандарё ҳавзаси, Тўпаланг дарё	Денов (520 м)	201мм / 42,3 %	W X,мм n, %	86,4 31 45,4	87,0 ,15 33,4	89,2 ,1 21,2	89,9 0 0	91,8 0 0
.	Базовой давр 1924-2005 гг.								
	Ўзбекистон худуди бўйича		171мм / 31,5 %	W X,мм n, %	85,2 86 26,4	86,6 1 62 34,6	88,8 ,30 23,5	89,3 17 7,96	90,5 ,10 1,84

И з о ҳ: W- йиллар бўйича ўртача қуёш фаоллиги; X- кўп йиллик ўртача ёғин қиймати, мм; n-қайд этилган селларнинг сони, %.

Жадвалдаги материаллар таҳлили қуёш фаоллигини нормадан кичик қиймати қайт этган даврида, жорий йилдаги ойларда (апрель−май) катта қийматдаги ёғган ёмғирлар ва ҳавзада кузатилган юқори намлик миқдорлари кузатилган йилларда энг кўп сел тошқинлари ҳосил бўлганлигини кўрсатди. Рақамларга эътибор қаратар эканмиз, қуёш фаоллиги нормадан кичик ва ҳавзанинг намлиги юқори бўлган йиллар (ёғинларнинг йиллик миқдорини қишки қиймати 32,3% дан 42,3% тенг) энг кўп сел тошқинлари кузатилганлигини эътироф этамиз. Таҳлиллардан кўрамизки, қишки ёғинларниг йиғиндиси йиллик нормани 25% кичик қийматни ташкил этган йиллари сел тошқинларини кузатилиш эҳтимоли йўқ даражада бўлишликни мумкинлигини кўрамиз. Паркент сой, Санзар дарёси ва Тўполанг дарё материаллари бунга мисол бўлаолади.

Хулоса. Мавзу бўйича олиб борилган изланишларимиз натижаси қуйидаги якуний хулосаларни баён этишга имкон беради:

− Ўзбекистон худудида кузатиладиган сел тошқинлари вақт ва макон бўйича беқарор, ҳамда ўта ўзгарувчан; шу билан бирга табиий−иқлимий омиллар таьсирида шаклланади;

− сел тошқинларини шаклланишида табиий омил−қуёшнинг фаоллигининг таьсири борлиги, бунда қуёш фаоллигининг нормадан паст қийматида селларни кузатилишини ортиши ва аксинча нормадан юқори қийматларда камайиши аниқланди;

−табиий−иқлимий омиллар: куёш фаоллиги, ёмғирларнинг қиймати ва ҳавзанинг намлик даражаси биргаликда таьсири сел тошқинларини (кузатилишини) пайдо бўлиш эҳтимолини ошириши кўрсатиб ўтилди;

−дастлабки олинган натижа ва хулосалар келгусида селларни кузатилишини баҳолаш ва умумий прогнозлашда фойдаланиш имконини

беради ва келгусида янги технологик усллардa сел ҳавфни баҳолашда қўл келади [4.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аверьянов п.о. О наводнениях в Наманганском уезде. Туркестанские ведомости. – 1880. –№ 37. с. 145−146.

2. Ахмедов М.А., Салямова К.Д. Селевые явления в Узбекистане. Вестник Университета гражданской защиты МЧС Белоруссии, Т.2, № 2. −2018, с. 214−221.

3. Аполлов Б.А. Учение о реках.-М.: Изд, МГУ.-1963.-424 с.

4. Дергачева И.В. Использование информационно – диагностической системы для оценки возникновения быстроразвивающихся паводков в Узбекистане.Изв.ГО Узбекистана.56−том, Ташкент.−2019, с.187−192.

5. Кудышкин В.А., Бондарь В.А. Селевой паводок на р.Паркентсай. Труды ин-та /Казах.н. – и. гидрометеорол.ин-т. – 1969. – Вып.33. – с.151-154.

6.Мустафакулов Т.М.К вопросу о циклах селеобразования. − «ДАНУзССР», 1956, № 3, с.32-34.

7.Шнитников А.В. Цикличность в стоке рек и в колебаниях уровня озер Северной Европе и солнечная активность // Известия ВГО, вып.1.- 1961. – с.21-32

8.Перов В.Ф. Селеведение. Учебное пособие. М.: Географический факультет МГУ.-2012. -272 с.

9.Петров Ю.П. Бухара климат и погода.Ташкент, 1999.−172 с.

10.Тўлаганов А.Х., Тўлаганов С.Х. Селлар гидрологияси ва сел оқимларидан автомобиль йўлларини ҳимоялаш. Т.: «Iqtisod- Mjliya».−2013. – 96 б.

11.Флейшман С.М. Сели. Л.: Гидрометеоиздат.−1978.−312 с.

12.Федотов Г.В. Изыскания и проектирование мостовых переходов. −М.: Изд. Цент. «Академия», 2005.− 304 с.

13.Хикматов Ф.Х.Водная эрозия и сток взвешенных наносов горных рек Средней Азии.Ташкент, Изд.«Fan va texnoljgiya», 2011.−248 с.

14.Чуб В.Е., Трафимов Г.Н., Меркушин А.С. Селевые потоки Узбекистана (справочник). Ташкент.−2007. − 109 с.

15.https://www.gazeta.ru/science/2015/12/01_a_7919243.shtml

16.http://meteo-dv.ru/geospace/AverageMonthW.

СРЕДСТВА СРОЧНОГО ВОССТАНОВЛЕНИЯ ПРЫЖКОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ

Асанова Динара
преподаватель физической культуры в УЖМКУз
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
https://doi.org/10.5281/zenodo.7271207

Аннотация: в статье рассматривается вопрос повышения уровня прыжковой выносливости баскетболистов с использованием релаксационно-дыхательных упражнений в качестве средств срочного восстановления.

Annotation: The article discusses the issue of increasing the level of jumping endurance of basketball players using relaxation and luminous exercises as a means of urgent recovery.

Annotatsiya: Anozatsiyaning tezkor tiklanish vositasi sifatida dam olish va yoritgichli mashqlar yordamida basketbolchilarning chidamliligi darajasini oshirish masalasi muhokama qilinadi.

Ключевые слова: баскетбол, соревновательная нагрузка, утомление мышц нижних конечностей, экстренное восстановление, прыжковая выносливость, прыгучесть, релаксационно-дыхательные упражнения

Для интенсивного развития узбекского баскетбола, расширение диапазона его популярности в регионах Республики Узбекистан и выхода на международную арену созданы все необходимые материально технические условия - построены современные спортивные сооружения, соответствующие мировым стандартам, особое внимание уделяется развитию детского спорта, подготовке, переподготовке и повышению квалификации действующих тренеров, что является результатом реализации указов и постановлений Президента Ш.М Мирзиеева и Правительства Республики.

Все специалисты мирового баскетбола считают, что если смысловое содержание игры осуществляется руками и если при этом достигается полезная результативность, то эта заслуга принадлежит искусству работы ног. Однако в этом заключается определенная проблема - большое количество скоростных дриблингов, выполняемых как в атаке, так и в защите с прыжковыми актами, как правило, приводит к возникновению признаков локального утомления в мышцах нижних конечностей.

Для устранения признаков утомления, накопившегося в мышцах нижних конечностей и восстановления прыгучести и прыжковой выносливости баскетболистов традиционно используются комплексные восстановительные средства фармакологического и психического характера. Однако существует

проблема экстренного текущего восстановления прыжковых качеств в ходе соревновательной нагрузки. Именно изучение возможностей средств срочного восстановления баскетболистов, как одного из факторов повышения эффективности соревновательной деятельности определяют **актуальность** и практическую значимость данного исследования.

Целью работы является изучение динамики развития прыжковых качеств и эффективности их восстановления после тренировочных нагрузок у квалифицированных игроков с использованием кратковременных релаксационно-дыхательных упражнений.

Для решения поставленной цели были определены следующие **задачи**:

-определение уровня развития прыгучести и прыжковой выносливости у баскетболистов-студентов групп СПС в ходе их тренировочных занятий;

-исследование уровня восстановления прыгучести и прыжковой выносливости при использовании релаксационно-дыхательных упражнений;

-разработка комплексов упражнений для экстренного восстановления прыгучести в ходе соревновательных нагрузок с последующим исследованием их эффективности в ходе педагогического эксперимента.

В ходе исследования были применены следующие методы: анализ научно-методической литературы, педагогическое наблюдение, анкетирование, педагогическое тестирование, а также методы математической статистики.

Результаты исследования. Было установлено, что почти у всех баскетболистов к концу завершения тренировочных занятиях и соревновательных игр прослеживается снижение первоначального уровня двигательной активности из–за возникновения утомления, впоследствие которого происходит заметный спад эффективности игровых приёмов, выполняемых в прыжке.

Для определения фактической картины состоятельности данного предположения нами были проведены исследования уровня проявления прыгучести у баскетболистов группы спортивно–педагогического совершенствования с последующим изучением интенсивности её восстановления через 15 минут после завершения тренировок. Результаты исследования приведены в таблице 1.
